



SUVNI TEJASH BO‘YICHA FAVQULODDA ISH TIZIMIGA O‘TILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 29-noyabr kuni qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videosektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Mamlakatimizdagi suv resurslarining 20 foizi o‘zimizda, katta qismi qo‘shni davlatlarda shakllanadi. Iqlim o‘zgarishi oqibatida suv manbalari yil sayin kamayib bormoqda. Transchegaraviy daryolarni boshqarish bo‘yicha vaziyat ham jiddiy. Bularning ta‘sirida 2030-yilga borib yurtimizdagi suv tanqisligi 15 milliard kub metrga yetishi prognoz qilinayпти.

Lekin shu holatda ham suvdan samarasiz foydalanilyapti. Mamlakatimizdagi jami suv resursining 90 foizi qishloq xo‘jaligida sarflanyapti. Masalan, yurtimizda bir gektar paxta maydonini sug‘orish uchun yiliga 10-11 ming kub metr suv sarflangani holda, iqlimi va yeri biznikiga o‘xshash mamlakatlarda bundan 2-3 baravar kam suv ishlatilyapti. U ham bo‘lsa, suvni to‘g‘ri boshqarish, isrof qilmaslik hisobiga.

Suv xo‘jaligiga har yili o‘rtacha 1 milliard dollar mablag‘ yo‘natirilmoqda. Bu soha byudjetdan mablag‘ olish bo‘yicha ta‘lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligidan keyin 4-o‘rinda turadi. Ammo tizimda hisob-kitob to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagani, suv resurslarini boshqarishda eskicha yondashuvlar saqlanib qolgani uchun samara kam.

Yig‘ilishda bu sohadagi muammolar, yangi tashabbus va vazifalar muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari bir yil davomida suvni tejash bo‘yicha favqulodda ish tizimiga o‘tilishini ta‘kidladi.

Bunda birinchi muhim vazifa — kanal va ariqlarni betonlash. Hisob-kitoblarga ko‘ra, betonlanmagan irrigatsiya tarmoqlarida yiliga o‘rtacha 14 milliard kub metr yoki 36 foiz suv hech qanday iqtisodiy samarasiz isrof bo‘lyapti. Eng ko‘p suv yo‘qotishlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Namangan, Navoiy, Xorazm va Buxoro viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Kanallarning oxirida joylashgan 175 ming gektar ekin maydonida suv ta‘minoti juda og‘ir.

Umuman, suv yo‘qotishlari oqibatida iqtisodiyotimizda yiliga 5 milliard dollar daromad boy berilyapti.

Shu bois, suv xo‘jaligida “kanallarni betonlash bo‘yicha zarbdor yil” e‘lon qilindi. Kelgusi yilda 1 ming 500 kilometr, ya‘ni bu yilgiga nisbatan 4 baro-

bar ko‘p yirik kanallarni betonlash vazifasi belgilandi. 2025-yildan boshlab kamida 2 ming kilometrdan kanallarni betonlashga o‘tiladi.

Buning uchun noyabr-mart oylari eng qulay vaqt ekani, loyihasi tayyor kanallarda qurilishni hozirdan boshlash kerakligi qayd etildi. Viloyat va tuman hokimlariga bir yil ichida 3 ming 500 kilometr ichki tarmoqlarni beton qoplamaga o‘tkazish topshirildi. Bundan manfaatdor klaster va fermerlarga maxsus texnika va qurilish materiallaridan yordamlashib, xarajatlarni 2 karra kamaytirish mumkinligi aytili.

Ikkinchi muhim vazifa — suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish.

Mamlakatimizda 4,3 million gektar sug‘oriladigan yer bo‘lib, shundan 30 foiziga suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan. Bunday klaster va fermer xo‘jaliklarida suv 30-40 foizga, o‘g‘it va yoqilg‘i 25-30 foizga tejalishi bilan birga, hosildorlik oshgan.

Lekin suv yetkazish tannarxi juda qimmat bo‘lgan Qashqadaryoda bunday usulda sug‘oriladigan yerlar atigi 16 foizni tashkil etadi. Suv tejashda eng sodda agrotexnik tadbir bo‘lgan yerni lazerli tekislash ishlari ham yetarli emas. Bunday maydonlar Qashqadaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlarida 10 foizdan kam.

Buning sabablaridan biri — suv tejovchi texnologiyani joriy qilgan fermerlarga kredit foizining bir qismini qoplash tartibi ishlamaypti. Shu bois, yig‘ilishda bu bo‘yicha yangicha moliyalashtirish tizimi belgilandi. Unga ko‘ra, klaster va fermerlarga suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish uchun ikki yillik imtiyozli davr bilan besh yilga 14 foizli kredit ajratiladi. Buning uchun ochiq-oshkora platforma ishga tushiriladi. Ham bank bilan, ham ta‘minotchilar bilan shartnoma elektron platforma orqali onlayn imzolanadi.

Mutasaddilarga buning moliyaviy-tashkiliy jihatlarini bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Suv tejash joriy etilgan maydonlarni har yili kengaytirib borish, Turkiya, Ispaniya va Xitoyning bu bo‘yicha tajribasini o‘rganish muhimligi ta‘kidlandi.

Kelgusi uch yilda ham qishloq xo‘jaligi texnikasining 15 foizi va lazerli tekislagichning 30 foizini subsidiyalash amaliyoti davom ettiriladi. 2026-yilgacha hamma ekin yerlari lazerli tekislanadi. 2026-yildan keyin lazerli tekislanmagan yerlarga nisbatan yer va suv solliqlari keskin oshiriladi.

Uchinchi muhim vazifa — suvni yetkazish xarajatlarni qisqartirish.

Bugungi kunda klaster va fermerlarga yetkazib berilyotgan har 1 kub metr suvga o‘rtacha 212 so‘m xarajat qilinaypti. Lekin Buxoro, Qashqadaryo va Namanganda bu 2-3 barobar qimmat.

Shu bilan birga, suv xarajatining 63 foizi nasos stansiyalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Xususan, sug‘orish uchun yiliga 7 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi sarflanadi. Chunki suv nasoslarining 80 foizi eskirgan, energiya sarfi yuqori.

Davlatimiz rahbari bu xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishning eng to‘g‘ri yo‘li — nasoslarni modernizatsiya qilish va ularni boshqarishni xususiy sheriklikka berish ekanini ta‘kidladi.

Bu borada bir nechta loyiha boshlangan. Bu ishlarni jadallashtirib, xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokida 95 ta nasos stansiyasini yangilash, kelgusi yil boshida yana 118 tasi bo‘yicha tender e‘lon qilish vazifasi qo‘yildi.

Shu bilan birga, xorijiy kompaniyalar 268 ta nasosni boshqaruvga olish tashabbusini bildirgan.

Umuman, ushbu choralar orqali kelgusi yili nasoslarning elektr sarfini 300 million kilovatt-soatga, keyingi uch yilda esa 1,5 milliard kilovatt-soatga kamaytirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tili.

Suv xo‘jaligi vazirligiga xalqaro moliya tashkilotlari bilan birga, nasoslarni modernizatsiya qilish bo‘yicha uch yillik dastur ishlab chiqish topshirildi. Sohada zamonaviy boshqaruvni joriy etish, suv hisobini yuritish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Yig‘ilishda suv xo‘jaligi vaziri, hokimlar va boshqa rahbarlarning axboroti eshtilidi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA PREZIDENTLARI OLIY DARAJADAGI KELISHUVLARNI AMALGA OSHIRISH MASALALARINI MUHOKAMA QILDILAR

29-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Ikki tomonlama munosabatlar kun tartibidagi dolzarb masalalar, shu jumladan, joriy yil 5-7-oktabr kunlaridagi Rossiya Federatsiyasiga oliy darajali tashrif chog‘ida erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi ko‘rib chiqildi.

Yetakchilar O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari izchil rivojlanib, ko‘p qirrali hamkorlik kengayib borayotganini qayd etdilar.

O‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlarining o‘shish sur‘ati saqlanmoqda, iqtisodiyotning

turli tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda, hududlararo aloqalar rivojlanmoqda. Kuni kecha Jizzax viloyatida birgalikda tashkil etilgan yirik agrologistika majmuasi ishga tushirildi.

O‘zbekiston va Rossiya rahbarlari madaniy-gumanitar almashinuv faol kechayotgani hamda sog‘liqni saqlash sohasida dasturlar amalga oshirilayotganini ham olqishladilar.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN BAADA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan 30-noyabr — 2-dekabr kunlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi masalalari bo‘yicha konferensiyasida ishtirok etish uchun Dubay shahrida bo‘ladi.

Iqlim bo‘yicha global sammitda dunyoning 150 dan ortiq mamlakatlarining davlat va hukumatlari, nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar rahbarlari qatnashadi.

Tadbir kun tartibidan BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Hadli konvensiyasi asosiy qoidalarini amalga oshirish, bugungi ekologik tahdid va xatarlarga qarshi kurashish, “yashil” taraqqiyot maqsad va vazifalarini ilgari surishda keng hamkorlik masalalari o‘rin olgan.

O‘ZA

8-DEKABR — O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

UCH MODDADA MUJASSAM KELAJAK

Dunyo teleekranlari singari telekanallarimizni to‘ldirgan turli seriallarning ham son-sanoq‘iga yetib bo‘lmay qoldi. Ulardan aksariyatining umri namoyish qilingan kunning o‘zidayoq tugaydi, izsiz-ta‘sirsiz yo‘q bo‘ladi. Biroq jahon kinoindustriyasi tomonidan yaratilgan shunday durdona asarlar borki, ularning mohiyati bir-ikki insonning emas, butun bir xalqlar, millatlar ravnaqiga-da turtki berishi mumkin. Nazarimda, shunday ibratli asarlardan biri yapon kinoijodkorlari yaratgan “Oshin” teleserialidir.



Mazkur film bugungi Yaponiyaning qay tarzda oyoqqa turgani, XX asrda kechgan ikkita jahon urushi, taqdirning yana boshqa

ayanchli sinovlarida toblanib, nihoyat buyuk taraqqiyotga erishgani xususida yaxlit hikoya qiladi.

Davomi 3-betda

DAVLAT DASTURI — AMALDA

YANGI IES — MINTAQADAGI ETALON LOYIHA

3,3 million xonadonning bir yillik iste‘molini qoplash imkonini beradi

Yaqin kelajakda insoniyatning tabiiy resurslar, xususan, elektr energiyasiga talabi ortib boraveradi. Hozirgi sharoit ham shuni ko‘rsatib turibdi. Yurtimizda oxirgi olti yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 61 milliard kilovatt-soatdan 74 milliard kilovatt-soatga yoki oldingi holatga nisbatan 1,2 barobar oshgani buning yorqin misoli. Hisob-

kitoblarga ko‘ra, mazkur ko‘rsatkich 2030-yilga borib, 110 milliard kilovatt-soatgacha yetishi mumkin. Mavjud ehtiyojni ta‘minlash oson emas, buning uchun tejamkor texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish quvvatlarini yanada oshirib borish talab etiladi.

Davomi 4-betda

OGOHLIK

O‘ZARO ISHONCH, BIRDAMLIK VA HAMKORLIK RUHI

tinch hayotimiz, farovonligimiz uchun mustahkam asosdir

Yangi O‘zbekistonning hozirgi rivojlanish bosqichida xalqimizni ma‘naviy-mafkuraviy va ijtimoiy-siyosiy faollashtirish asosiy vazifalarimizdan sanaladi. Binobarin, bugun dunyo sahnida yuz berayotgan mafkuraviy jarayonlar bizdan ogoh bo‘lishni, fuqarolarimizning ongi va qalbini zabt etishi mumkin bo‘lgan turli tahdidlardan himoya qilish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Davomi 3-betda

TARAQQIYOT MEZONLARI



ILMDAN BIR SHU‘LA DILGA TUSHGAN ON...

O‘zbek olimasining mikrobiologiya sohasidagi tadqiqotlari dunyo e’tirofida



Universitetni tamomlab, oliy ta‘limning keyingi bosqichini davom ettirish — bu hali olimlik degani emas. Chinakam ilm yo‘li ancha uzoq va mashaqqatli. Bu yo‘ldan yurish xotinqizlar uchun ikki karra qiyinroq. Chunki ular bir qo‘lida oila atalmish qo‘rg‘onni, boshqa qo‘lida ilmni tutishi kerak. Ana shunday mashaqqatlardan cho‘chimay, salkam o‘ttiz yillik umrini ilm-fanga bag‘ishlagan o‘zbek olimasi, mikrobiolog Dilfuza Egamberdiyevani xorijda ham yaxshi tanishadi.

U Stenford universiteti talqiniga ko‘ra, 2000-yilda dunyoning eng yaxshi 2 foiz olimlari ro‘yxatiga kiritilgan. Shu yil noyabr oyining ilk kunlarida esa mikrobiologiya bo‘yicha nufuzli UNESCO — Karlos Finley mukofotining joriy yilgi yagona sohibasiga aylandi.

Davomi 5-betda



HOKIM YORDAMCHISI KUNDALIGI

SO‘RXTEPANING “O‘SISH” NUQTALARI

Ra'noxon HOJIBOLAYEVA, Farg'ona shahri “So‘rxtepa” mahalla fuqarolar yig‘inidagi hokim yordamchisi



“Hokim yordamchilari Prezidentning mahalladagi vakillari hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi o‘z mahallasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ish o‘rni yaratish, kambag‘allikni qisqartirish va oilalar daromadini ko‘paytirishdan iborat. Buning uchun hokim yordamchilari har qanday byurokratiyadan xoli bo‘lishi, hech qaysi hokim yoki rahbar ularni majlislarga chaqirmasligi, turli hisobotlar bilan ko‘mib tashlamasligi lozim. Hokimlar ular uchun faqat sharoit yaratib berishi kerak”.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 15-yanvar kuni mahallabay ishlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha ustuvor vazifalarga bag‘irlangan videoselektor yig‘ilishida aytgan ushbu so‘zlari nainki menga, barcha hamkasblaringa qanot baxsh etib, yangidan-yangi loyiha va

748 xonadonning aksariyati 2-6 sotixgacha tomorqaga ega. Ular bog‘dorchilik, uzumchilik bilan shug‘ullanadi.

Xatlov davomida 152 nafar ishsiz borligi, shundan 56 nafari xotin-qiz va yoshlar ekani, norasmiy sektorda faoliyat ko‘rsatayotganlar soni 430 dan ortiqligi aniqlandi. Ijtimoiy guruhlariga kelganda, birinchi toifa —



g‘oyalarni ishga solishda tayanchu suyanch bo‘lib kelyapti, desam hech mublag‘a qilmagan bo‘laman.

Bizga har qanday yumushni bajarish yoki loyihani ilgari surishda, avvalo, mahallamiz oqsoqollari va faollarining ko‘magi, maslahati hal qiluvchi omil bo‘lyapti. Bu, ayniqsa, 2022-yil boshida faoliyatimizni mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni “xonadonbay” o‘rganish, jumladan, aholining bandlik darajasi, oilalarning daromad manbalari, tomorqa yerlaridan foydalanish holati hamda mehnatga bo‘lgan intilishi va ehtiyojini tahlil qilishdan boshlaganimizda juda qo‘l keldi. Natijada o‘tkazilgan xatlovdan keyin mahalladagi barcha ijobiy va salbiy jihatlar kaftdagiday namoyon bo‘ldi.

XATLOV XULOSALARI VA AMALIY ISHLAR

So‘rxtepa mahallasi Farg‘ona shahrining eng katta hududi bo‘lib, Marg‘ilon shahri bilan deyarli chegaradosh. Bu yerda 1 ming 200 dan ortiq oilada qariyb 4 ming 200 kishi (asosan, hovlilarda) yashaydi.

daromadi kam, ishsizlari bor, daromad topishga harakat qilayotgan xonadonlar 34 ta (4,5 foiz); ikkinchi toifa — doimiy daromadga ega, qo‘shimcha daromad topish istagi bor xonadonlar 452 ta (60,4 foiz); uchinchi toifa — ijtimoiy himoyaga muhtoj, boquvchisini yo‘qotgan, imkoniyati cheklangan shaxslar bo‘lgan xonadonlar 60 ta (8,1 foiz); to‘rtinchi toifa — iqtisodiy ahvoli yaxshi va o‘ziga to‘q xonadonlar 202 tani (27,3 foiz) tashkil etishi ma‘lum bo‘ldi.

Tahillardan kelib chiqqan xulosalar asosida mahallaning o‘shish nuqtalari sifatida 7 yo‘nalish belgilab olindi. Ana shulardan biri — ishlab chiqarish. Chunki hududda beshta ishlab chiqarish korxonasi mavjud, bugungi kunda ular 380 fuqaromizning doimiy bandligini ta‘minlagan. Jumladan, poyabzal ishlab chiqaruvchi 3 ta korxona faoliyat yuritadi. Shulardan biri — Kamoliddin Zokirov o‘z xonadonida kosiblik yo‘nalishida oilaviy korxona tashkil etgan, unda 21 usta ishlar edi. Tadbirkor bilan maslahatlashgan va mavjud imkoniyatdan samarali foydalangan holda ular sonini 50 nafarga ko‘paytirishga erishdik.

O‘tgan yil noyabr oyida viloyat hokimining mazkur korxonaga tashrifi chog‘ida uni yanada kengaytirish masalasi muhokama qilindi. Mana, oradan bir yil o‘tib, bunga ham erishildi. Jami 2 milliard 300 million so‘m kreditga tayangan holda qurilish va jihozlash ishlari amalga oshirilib, ayni paytda xodimlar soni 150 nafarga yetdi. Korxonada 15 turdagi ayollar poyabzali ishlab chiqarilaypti.

Hayrat ko‘chasida yashovchi fuqaro Baxtiyor Xo‘jayev ham olingan imtiyozli kredit hisobiga o‘z uyida sut mahsulotlarini qayta ishlashni yo‘lga qo‘ydi va 15 fuqaroni doimiy ish bilan band etdi.


Tajribadan ma‘lumki, ishsiz ayollarga tikuv mashinasi olib berish bilan muammo hal bo‘lmaydi. Birinchi navbatda, uning tikuvchilikka uquvi bor-yo‘qligini aniqlash, xohishiga qarab shu kasbga o‘rgatish kerak. Ishsizlikni qisqartirishga biz ham shu nuqtayi nazardan yondashyapmiz.

Mahalla fuqarolar yig‘ini binosidagi bo‘sh turgan xonani sektor vakillari yordamida ta‘mirdan chiqarib, tikuvchilik sexiga aylantirdik. Avvaliga bu yerda ijtimoiy daftarlardan o‘rin olgan 30 xotin-qiz tanlab olinib, kasbga o‘rgatildi va doimiy ish bilan ta‘minlandi. Keyin sexni kengaytirib, “Nur fayz xhs ruso” tikuv ishlab chiqarish kooperatsiyasini tashkil qildik. Kooperatsiya 150 dan ortiq xonadondagi 170 nafar xotin-qizga kasanachilik usulida yarim tayyor mahsulotlarni uylariga yetkazib beryapti. Ular bu kiyim-kechaklarni tayyor holatga keltirib, ro‘zgori but bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Korxona yaqin orada shunday tartibda ishlovchilar sonini 300 nafarga yetkazishni maqsad qilgan.

Bundan tashqari, 8 oilaga 4 tadan 6 tagacha tikuv mashinasi olib berish evaziga tikuv sexlari tashkil etildi. Ularda 45 ta ishchi o‘rni mavjudga keldi.

Misol uchun, xonadonida tikuvchilik bilan shug‘ullanib kelgan Mohichehra Musinova va Dildora Hamidovaga 22 million so‘m imtiyozli kredit ajratilishi tufayli sex tashkil etildi.

Xonadon sohibi Ulug‘bek Musinov esa yaqinda olgan 30 million so‘m imtiyozli kredit evaziga non va non mahsulotlari hamda milliy shirinliklar ishlab chiqarish korxonasi faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Sex va korxonaga yon-atrofta yashovchi 8 xotin-qiz jalb etilib, doimiy ish bilan ta‘minlandi.



Asosiy yo‘nalishimizdan yana biri — asalarichilik. Farg‘ona shahrida joylashgan mahallada qanday qilib asalari parvarishlash mumkin, deb o‘ylarsiz. Haqiqatan, aslida, shunday. Lekin “Qalovini topsang, qor yonadi”, degan gap bejiz aytilmagan. Biz tuzgan “Arichi” ishlab chiqarish kooperatsiyasi ushbu sohaning doyasi hisoblangan ona ari yetishtirish bilan shug‘ullanadi. Buning uchun bankdan 100 million so‘m kredit olinib, shu sohaning malakali mutaxassislari jalb etildi. Hozir bu yumush bilan 30 ga yaqin yosh band. Mahsulot nafaqat viloyatdagi asalarichilarga, balki qo‘shni hududlarga ham yetkazib berilmoqda.

ELGA XIZMAT — OLIY HIMMAT

So‘rxtepa — “qizil tepalik” ma‘nosini bildiradi. Hududimizda shunday tarixiy tepalik mavjud, u noyob obida sifatida qisman saqlanib qolgan. Obida yaqinidan 2 ming 408 metr chuqurlikdan chiqayotgan

“

Farg‘ona shahrida joylashgan mahallada qanday qilib asalari parvarishlash mumkin, deb o‘ylarsiz. Haqiqatan, aslida, shunday. Lekin “Qalovini topsang, qor yonadi”, degan gap bejiz aytilmagan. Biz tuzgan “Arichi” ishlab chiqarish kooperatsiyasi ushbu sohaning doyasi hisoblangan ona ari yetishtirish bilan shug‘ullanadi. Buning uchun bankdan 100 million so‘m kredit olinib, shu sohaning malakali mutaxassislari jalb etildi. Hozir bu yumush bilan 30 ga yaqin yosh band. Mahsulot nafaqat viloyatdagi asalarichilarga, balki qo‘shni hududlarga ham yetkazib berilmoqda.

doyasi hisoblangan ona ari yetishtirish bilan shug‘ullanadi. Buning uchun bankdan 100 million so‘m kredit olinib, shu sohaning malakali mutaxassislari jalb etildi. Hozir bu yumush bilan 30 ga yaqin yosh band. Mahsulot nafaqat viloyatdagi asalarichilarga, balki qo‘shni hududlarga ham yetkazib berilmoqda.

suv har jihatdan shifobaxsh. Uning tarkibida 33 ta foydali element bo‘lib, teri va oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda yaxshi samara beradi. Avvallari hududda umumiy maydoni 1,5 gektar sihatgoh ham bo‘lgan. Ayni kunda mazkur dam olish maskanini qayta tiklash, aholi uchun dam olish joylari, mehmonxona qurish yuzasidan bildirgan taklifimiz viloyat hokimi tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, amaliy yordam ko‘rsatilyapti.

Keyingi paytda So‘rxtepada dam olish maskanlari qurish, xizmat ko‘rsatish turlarini ko‘paytirishga e‘tibor oshdi. Mahalla oralam Marg‘ilonsoy irmoqlari hududga o‘zgacha go‘zallik, orastalik bag‘ishlaydi. Yuzdan ortiq xonadon vakillari suv bo‘ylariga so‘ri qurib, shinam dam olish joylari tashkil etgan. Lekin ularning hammasi ham bugungi xizmat ko‘rsatish va qirg‘oq muhofazasi talablariga javob bermas edi.

Mahallamizni rivojlantirishning viloyat hokimligi yordamida ishlab chiqilgan konsepsiyasiga ko‘ra, sohil bo‘yidagi joylarga yig‘ma so‘ri, supalar qurib, dam olish, xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq zamonaviy sharoit yaratish ishlari rejalashtirilgan. Yaratilgan qulay sharoitlar nafaqat mahalliy, balki xorijlik mehmonlarni jalb etish imkonini beradi.



ISLOHOTLAR AMALDA

SURXONDARYO: RIVOJLANISHDA KATTA “SAKRASH”

Ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish hududlar iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va aholi bandligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Ayni maqsadda joriy yil boshidan buyon Surxondaryo viloyatida 150 million dollarga teng xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi.

Termiz tumanidagi “Termez National Carpets” mas‘uliyati cheklangan jamiyati yiliga 2,2 million kvadrat metr gilam ishlab chiqarish quvvatiga ega. Hozir bu yerda Belgiya, Germaniya, Turkiya va Xitoydan olib kelingan eng zamonaviy texnologiyalar asosida 10 turdagi gilam mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. 150 kishining bandligi ta‘minlangan.

Davlatimiz rahbari joriy yil 13-mart kuni Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida mazkur korxona faoliyati bilan ham tanishib, bu yerda tayyorlanayotgan gilam mahsulotlari sifatini oshirish, eksport geografiasini kengaytirish bo‘yicha topshiriqlar bergan edi. Umumiy loyiha qiymati 20,2 million yevroga teng korxona ichki bozor talablarini qondirish bilan birga, mahsulotining 60 foizdan ortig‘ini Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Afg‘oniston va Ozarbayjonga eksport qilmoqda.

— Faoliyatimizga zarur xomashyoning 80 foizi mahalliyashtirilgan, — deydi korxona rahbari Sobir Rahmonov. — Joriy yilda 4 million dollarlik mahsulotni xorijiy buyurtmachilarga yetkazib berish niyatidamiz. Kelgusi yilda bu



alohida e‘tibor qaratmoqdamiz. Hozir tashqi va ichki yoritish tizimi uchun quyosh panellari o‘rnatilgan.

Surxondaryoda so‘nggi besh yilda viloyat sanoatiga 30 trillion so‘m investitsiya jalb qilinib, 5 mingdan ziyod korxona tashkil etildi. Ishlab chiqarish 3 barobar ko‘payib, sanoat eksporti

132 million dollarga yetdi. Joriy yilda 292 ta sanoat loyihasi ishga tushirilishi evaziga 10 mingta yangi ish o‘rni yaratish ko‘zda

“

Yaqinda Angor tumanida teri xom-ashyosidan tayyor mahsulot ishlab chiqarish loyihasining dastlabki bosqichi ish boshladi. Mazkur loyiha ikki bosqichda 120 oshirilishi rejalashtirilgan. Birinchi bosqichda yiliga 400 kvadrat metr terini chuqur qayta ishlash va tayyor charm mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

tutilmoqda. Eng muhimi, sanoatda importni 50 million dollarga qisqartirib, eksportni 250 million dollarga yetkazish bo‘yicha aniq tadbirlar rejai ishlab chiqilgan.

— Viloyatimiz iqtisodiyoti o‘shishi dinamikasi ancha yuqori, — deydi Surxondaryo viloyati hokimining birinchi o‘rinbosari Anvar Oripov. — Iqtisodiy va investitsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari natijasida 2017-2022-yillar davomida viloyatning yalpi hududiy mahsuloti hajmi

31,2 foiz oshib, 14,4 trillion so‘mdan 34,9 trillion so‘mga yetdi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha o‘shish ko‘rsatkichlari quvonarli. O‘tgan yili 28 trillion so‘mlik mahsulot yetishtirilgan. Viloyatda sanoatga investitsiya jalb qilinishi, ilgari mavjud bo‘lmagan qurilish materiallari, charm-poyabzal, elektr texnikasi kabi yangi sanoat tarmoqlari yaratilishi natijasida sanoat ishlab chiqarish hajmi 2,4 trillion so‘mdan 7,3 trillion so‘mga yetdi yoki 38,7 foiz o‘sdi. O‘tgan

6 yil mobaynida tadbirkorlik subyektlari soni 21,2 mingtadan 35,6 mingtaga ortib, 1,7 barobar ko‘paydi.

Yaqinda Angor tumanida teri xom-ashyosidan tayyor mahsulot ishlab chiqarish loyihasining dastlabki bosqichi ish boshladi. Mazkur loyiha ikki bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Birinchi bosqichda yiliga

120 million kvadrat metr terini chuqur qayta ishlash va tayyor charm mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Buning uchun korxona Italiya va Turkiyaning qiymati 13,2 million dollarlik zamonaviy asbob-uskunasi bilan jihozlandi. Korxona ish boshlashi bilan 450 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Kelgusi yilda korxonada 450 ming juft erkaklar, bolalar va sport poyabzallari, 250 ming dona charm-attorlik mahsuloti, 5 ming tonna jelatin va kollagen ishlab chiqarishga kirishiladi. Buning natijasida korxonada 860 kishi doimiy ish o‘miga ega bo‘ladi.

Mahallada hunarmandlik va agroturizmni rivojlantirish imkoniyati keng. Hududdagi bo‘sh turgan binoda milliy liboslar tikuvchilik sexi ishga tushirildi. Bu yerda sayyohlar uchun mahsulotlar ko‘rgazmasi va savdosi yo‘lga qo‘yilgan. Mehmnonlar hunarmandlik buyumlari tayyorlash jarayoni bilan bevosita tanishishi, buyurtmalar berishi mumkin.

Kosiblik kasbiga ixlosi va uquvi bor 4 ta xonadonda oilaviy korxona tashkil qilib, 12 ta ish o‘rni yaratildi. Yetmishdan ortiq xonadon tomorqasidagi issiqxonada turli sabzavot va limon yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, Hayrat ko‘chasida yashovchi Ulug‘bek Po‘latov xonadonida 2 sotix issiqxona tashkil etgan bo‘lsa, shu yil fevral oyida 20 million so‘m imtiyozli kredit evaziga mazkur issiqxona 10 sotixga aylantirildi. Tabiiyki, ish o‘rinlari soni ham uch karra oshdi.

Mahallamiz hududida temir bozori mavjud. Xarid qilingan mahsulotni manzilga yetkazishda motorollerga talab yuqori. Shuni hisobga olib, imtiyozli kredit evaziga 20 nafar fuqaroga ana shu rusumdagi transportni olib berdik. Ular bugungi kunda oilasiga yaxshigina daromad olib kirish bilan birga, kreditni ham vaqtda so‘ndiryapti.

Shuningdek, imtiyozli kredit evaziga 4 ta maktabgacha ta‘lim tashkiloti, novvoyxona, oshxona, sataroshxona, sut mahsulotlarini qayta ishlash sexi, oziq-ovqat do‘konlari tashkil etildi. Buning natijasida 34 ta yangi ish o‘rni yaratishga erishildi.

Mahalla oqsoqollari boshchiligidahududdagi tadbirkorlar, faollar va yoshlar hamjihatligida qator ijobiy ishlar bajarildi. Jumladan, mahalla qabristoni hashar yo‘li bilan obood qilindi, beton devor bilan o‘raldi. Iroda va Kosmonavtlar ko‘chalari ichki yo‘llari to‘liq asfaltlandi, 1,5 kilometr ichimlik suv tarmog‘i tortildi, soy ustida 20 metrik po‘prik qayta qurildi. 1000 tup gul, 200 tup tut ko‘chati hamda 15 ta ehtiyojmand oilaga pishiriq pechi tarqatilib, amaliy yordam ko‘rsatildi.

Ayni paytda 5 ta yirik yangi loyiha ustida ish olib borilmoqda. Mahallamizda joylashgan Eski Farg‘ona ko‘chasidagi sobiq viloyat bolalar nogironlar reabilitatsiyasi markazi o‘miga 1,6 gektar maydonda davlat-xususiy sherikchilik asosida 200 o‘rinli sihatgoh va 100 o‘rinli mehmonxona qurish rejalashtirilyapti. Ular faoliyat boshlagach, 250 ta yangi ish o‘rni ochiladi.

Mahalla binosi va oilaviy poliklinikani qaytadan qurib, foydalanishga topshirish ham galdagi rejalarimiz sirasiga kiradi. Bundan tashqari, 35 ta kichik tadbirkorlik subyekti tashkil etiladi.

Ana shunday yangilanishlar samarasi mahalla hayoti, odamlar turlush sharoiti yaxshilanayotganida o‘z ifodasini topib boryapti. Bu, albatta, aholining “mahallabay” ishlash tizimiga ishonchini yanada mustahkamlaydi.

Shu yil Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida hayotimda yana bir quvonarli voqea yuz berdi. Bayram munosabati bilan kamtarona mehnatni “Shuhrat” medaliga loyiq ko‘rildi. Bu mukofotning shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan topshirilishi yanada katta rag‘bat bo‘ldi.

Bugun harakat, izlanish, yangilanish davri. Ana shunday yashash va ishlash doimiy ravishda malaka-saviyamizni oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va farovonligini yaxshilashga qaratilgan vazifalarni bajarish, yangidan-yangi loyihalarni ro‘yobga chiqarishda tashabbuskor bo‘lishni taqozo etadi.

Viloyatda chorvachilik keng rivojlangani loyiha istiqbolini ta‘minlaydi. Ayni paytda viloyatda bir milliarddan ortiq yirik shoxli va 2,5 milliarddan ziyod mayda shoxli chorva boqilmoqda. Bu yiliga o‘rtacha bir million donadan ortiq mayda shoxli va 500 mingga yaqin yirik shoxli mol terisi xomashyosi zaxirasini yaratadi. Hozirga qadar ana shunday katta miqdordagi xomashyo isrof bo‘layotgan edi. Yangi korxona ishga tushishi bilan sifatti charm mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi yanada ortdi. Jumladan, bu yil teri xomashyosidan 210 million so‘mlik mahsulot tayyorlanishi kutilmoqda. Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya, Italiya, Hindiston, Germaniya, Portugaliya kabi davlatlarga 45 million dollarlik mahsulot eksport qilinadi.

Korxona xalqaro sertifikatga ega. Bu korxonaga mahsulotlarini Yevropa bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksport qilish va xorijiy brend zanjirlariga qo‘shilish imkoniyatini beradi.

Har bir hududning o‘ziga xos rivojlanish omillari bor. Jumladan, Surxondaryoning ham. Yer osti va yer usti boyliklari, mehnatkash odamlari, qulay tadbirkorlik muhiti hudud istiqbolini belgilash, odamlar turmush tarzini yanada yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga keng yo‘l ochib bermoqda. Ayniqsa, barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish orqali kambag‘allikni qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni ta‘minlash, xususiy investitsiyalar hajmini yanada oshirishga doir amaliy ishlar bu borada hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Ilhom SAMADOV, jurnalist

8-DEKABR – O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

“Donishmandlar bekorga “Agar otang sening ko‘kdan yerga tushishingda vosita bo‘lgan bo‘lsa, muallim seni yerdan ko‘kka ko‘taradi”, demagan. O‘qituvchi-murabbiylar shaxsni, millatni, xalqni, insoniyatni chin mavqelarga ko‘tarish, shu yuksakliklarga undashdek qiyosi yo‘q mehnatni qila oladigan yagona kasb egalaridir.

UCH MODDADA MUJASSAM KELAJAK



**Rahmon QO‘CHQOR,
TDYUU dotsenti v.b.,
filologiya fanlari nomzodi**

Boshlanishi 1-betda

Serial boshida ne-ne umidlari bilan Xudodan tilab olinganiga qaramay, moddiy muhtojlik tufayli yarim qop guruchga almashtirib yuborilgan to‘rt yoshli qizaloq Oshin oradan qariyb 80 yil o‘tgach, g‘ildiraksiz, magnit yostiqlarida soatiga 350 kilometr tezlikda harakatlanadigan eng zamonaviy poyezd-laynerda nabirasiga taqdirini hikoya qilib beradi...

Agar xalqaro “History” telekanali arxiviga birrov sayohat qilsak, u yerda ayni xalqning yaqin tarixiga oid boshqa ayanchli hujjatli kadrlarga ham ko‘zimiz tushadi. Ikkinchi jahon urushi pirovardida dengizda amerikaliklar, quruqlikda sovet armiyasi hujumlaridan himoyalinishga majbur bo‘lgan yaponlar ixtiyoriyidagi kemalardan otilayotgan torpedalar qandaydir bir necha yuz metr naridagi dushman kemalariga to‘g‘ri bormayotgani tufayli yaponning kamikadze jangchilari mexanik rul, temir “egar” va ortiga tunuka “qanot” o‘rnatilgan torpedalarga mingashib, nishon — naqd o‘lim tomon ongli ravishda otilgan. Ya‘ni o‘tgan asr o‘rtalarida ham yapon texnikasi, demakki, ilm-fani mana shunday qolqoq alfozda bo‘lgandi...

Oradan bor-yo‘g‘i 30-40 yil o‘tgach esa jahon chinakam “yapon mo‘jizasi”ga — bu mamlakatning misli ko‘rilmagan taraqqiyotiga guvoh bo‘ldi:



aksariyatining umri yarim qop guruchga baholangan Oshinlarning nabiralari dunyodagi eng tez yurar, eng insonbop poyezdlarni izga tushirgan bo‘lsa, ibtidoiy torpedalari nishondan adashib yurgan yaponning bugungi qo‘l telefonlari va robot-odamlari jami odamzodni qayta-qayta hayratga solmoqda! Yapon dehqoni tarvuzning nafaqat to‘rtburchak, balki hamma tomoni teng — kub shaklidagi navlarini yaratgan bo‘lsa, chorvadori bir molini Chaykovskiy, boshqasini Betxoven bastalagan musiqa sadolari ostida boqib, ularning bir kilo go‘shтини ming-bir yarim ming dollardan pullamoqda! Yaqinda atigi 16 dona glosning auktsionda naqd 15 ming dollarga sotilganini esa aytmay qo‘ya qolay!...

Xo‘sh, bu yutuq — natijalar nimaning evaziga qo‘lga kiritildi, qanday sirli hodisa yuz berdiki, yer osti va yer usti boyliklari deyarli bo‘lmagan Yaponiya bugun yalpi ichki mahsuloti hajmi bo‘yicha dunyodagi to‘rtinchi davlatga aylana oldi?

Javob aniq va ravshan: hammasi ilm-fanning, ta‘limning ravnaqi evaziga! Xuddi shunday hodisani Singapur, Gonkong, Janubiy Koreya, Malayziya singari “Osiyoning kichik yo‘lbarslari” misolida ham kuzatamiz.

Demak, jadid ma‘rifatparvarlari aslo adashmagan, xato o‘ylamagan: najot — faqat va faqat ta‘limda, ilm-u ma‘rifatda! Barcha sohadagi taraqqiyoga ilm kuchi bilan, uni hosil qiluvchi ta‘lim sifati bilan erishiladi!

Agar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyatiga sinchiklab nazar tashlasak, bu oliy hujjatni yaratishda ham ayni haqiqatga tayanilgani yaqqol seziladi.

Unga ko‘ra: barcha fuqarolarga ta‘lim olish imkoniyatini yaratish; uzluksiz ta‘lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, ta‘lim tashkilotlari rivojlanishini ta‘minlash; umumiy o‘rta ta‘lim va boshlang‘ich professional ta‘limning bepulligini kafolatlash; fuqarolarning davlat ta‘lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma‘lumot olishini ta‘minlash;

o‘qituvchilarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish singari nihoyatda katta xarajatlar talab qiladigan vazifalarni davlat o‘z zimmasiga oladi.

Ochig‘i, ko‘plab mamlakatlarda davlatning ta‘lim sohasiga qaratadigan e‘tibori va g‘amxo‘rligi bu darajada emasligi — bor gap. Eng muhimi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor otimizdagi ulug‘ ustozlarimiz — o‘qituvchilarning mo‘tabar maqomi qat‘iy e‘tirof topdi:

“O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etiladi”.

O‘qituvchining mehnati!

Shu iboradagi o‘qituvchi kasbi o‘rniga boshqa xohlagan kasb yoxud mansab nomini qo‘yib o‘qib ko‘raylik-chi, matndagi keyingi ta‘rifga to‘la mos tusharmikan: ishchining, shifokorning, quruvchining, muhandisning, fermerning, kosmonavtning, haydovchining, hunarmandning, jurnalistning, ITchining, hokimning, vazirning... mehnati. To‘la ishonch bilan aytamizki, birovta kasb yoxud mansab egasi Konstitutsiya matnida keltirilgan buyuk missiyani o‘qituvchidek to‘la bajara olmaydi!

Zero, donishmandlar bekorga “Agar otang sening ko‘kdan yerga tushishingda vosita bo‘lgan bo‘lsa, muallim seni yerdan ko‘kka ko‘taradi”, demagan. O‘qituvchi-murabbiylar shaxsni, millatni, xalqni, insoniyatni chin mavqelarga ko‘tarish, shu yuksakliklarga undashdek qiyosi yo‘q mehnatni qila oladigan yagona kasb egalaridir.

Shu tufayli ham Prezidentimiz Vatanimiz mustaqilligining 32 yillik tantanasida so‘zlagan nutqida: “Ta‘limni rivojlantirishdan turib yuksak taraqqiyotga erisha olmaymiz. Har qanday

muammoning yechimi ham, ertangi kunimizni hal qiluvchi omil ham, shubhasiz, ta‘limdir”, deya ta‘kidlaydi.

Darhaqiqat, ertangi kunni o‘ylamaslik, tadorigini bugun ko‘rmaslikning aslo iloji yo‘q. Dunyoning ilg‘or xalqlariga yetib yulish, xalqimizni har sohada tenglar ichra teng maqomga olib chiqish, Uchinchi Renessans poydevorini o‘qoyshdek hayot-mamot masalalarini uddalash o‘zi bo‘lib qoladigan ishlari emas. Yurtimiz ta‘lim muassasalaridagi har bir o‘qituvchi zimmasida qanchalik muhim vazifa borligini muntazam his qilib, unga umid ko‘zlarini tikib turgan O‘zbekiston bolalarining euzu intilishlari, ichki imkoniyatlariga soatma-soat yo‘l ochib borsa, biror darsni shunchaki emas, butun borlig‘ini bag‘ishlab o‘tsa... tasavvur qilasmiz, azaldan yaratuvchi xalqimiz ongida, tafakkurida, dunyoqarashi va kayfiyatida qanday ko‘tarilishlar, ijoiy o‘zgarish va yangilanishlar yuzaga keladi! Axir barcha buyuklarimizning oyoqqa turishi, dunyoga azot bo‘y ko‘rsatishi aynan shu taxlit yuz bermaganmi?

Mana shu tarixiy tajribani, barhayot merosni zamonga mos tarzda istifoda etishga da‘vat Prezidentimizning yuqorida eslaganimiz nutqida yana qayta yangradi: “Biz jahonga faqat xomashyo emas, avvalo, ilm-ma‘rifat, ma‘naviy boylik yetkazib bergan ne-ne ulug‘ zotlarning avlodimiz”.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning barcha, ayniqsa, ta‘limga bag‘ishlangan moddalarini sizga bizga mana shu tarixiy maqomni doimiy eslatib turishi barobarida, uni yanada yuksaltirish, boyitish va takomillashtirishimiz uchun ishonchli huquqiy asosni — tayanch nuqtani ko‘rsatib, bildirib turadi.



**Shavkat TO‘RAYEV,
falsafa fanlari nomzodi,
dotsent**

“Radikal mafkuralarning yana bir muhim jihati etnomadaniy omil hisoblanadi. Uning asos markazida esa aksariyat hollarda diniy qarashlar turadi. Diniy-etnik radikalizmning siyosiy maydonga chiqishi jamiyat uchun xavfli ekstremizmning mafkuraviy asosiga aylanishi mumkin.

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining joriy yil 19-sentabr kuni bo‘lib o‘tgan 78-sessiyasidagi nutqida xalqaro munosabatlarni tizimida fundamental o‘zgarishlar yuz berayotgani, keyingi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan va ortga qaytmas tus olgan keng ko‘lamli islohotlarga alohida to‘xtalib, global va mintaqaviy kun tartibidagi eng dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Xususan, ekstremizm tarqalishiga, yoshlarning radikalashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun birgalikdagi harakatlarni faollashtirishga to‘xtalib o‘tdi.

Darhaqiqat, bugun yer yuzida mafkuraviy kurashlar avj olmoqda. Ayniqsa, siyosiy va mafkuraviy jarayonlar qo‘shilib ketayotgani insoniyat uchun o‘ta xatarli. Bugungi kundagi mafkuraviy qarama-qarshiliklar, ular bilan bog‘liq dolzarb muammolar keng qamrovi tahlil va tadqiqotlarni talab etadi, o‘z navbatida, har birimizni ogohlik va hushyorlikka chorlaydi.

Bunday sharoitda muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan bu kabi muammolarni keng miqyosda, dunyoning barcha davlatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o‘rganish, metodik aniqlash, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida mafkuralar jamiyatning taraqqiyoti bilan bog‘liq o‘yalar va tamoyillarni qamrab olgan, bir maqsad sari yetaklagan. Ammo bugungi globalashuv sharoitida jamiyatning muayyan qismi manfaatlariga xizmat qiluvchi mafkuralarning gegemonlik uchun kurash olib borayotgani hech kimga sir emas. Ayni jarayonda dunyoda hukmronlik qilishni istagan kuchlar milliy mafkuralar rivojlantirishni, qadrsizlanishi uchun tinimsiz harakatlaligini ham anglash u qadar qiyin emas. Buning achinarli jihati shundaki, mafkuralar qanday shaklda, qanday bo‘yoqlarda namoyon bo‘lmasin, qanday ezuq maqsadlarini bayroq qilib ko‘tarmasin, ular hamma vaqt salbiy oqibatlarini keltirib chiqargan, jamiyatning qarama-qarshi guruhlarga bo‘linib ketishiga olib kelgan.

Shu bois, mafkuraviy tahdid sifatida jamiyatlar, xalqlar hayotiga, turish-turmushiga jiddiy ta‘sir o‘tkazayotgan bunday tahdidlardan doimo ogoh bo‘lish kerak. Ayniqsa, bu ogohlik yoshlar ongi uchun kurash ketayotgan bugungi zamonda hayot-mamot masalasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatlararo siyosiy nizolar jamiyatlar, xalqlar, millatlar o‘rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlarni vujudga keltirmoqda. Bu esa o‘z axloqiy qarashlari va mafkuraviy tamoyillariga ega ijtimoiy guruhlarni qarama-qarshiligida namoyon bo‘ladi. Bugungi mafkuralar kurashis siyosiy to‘qnashuvlar natijasi bo‘lib, jamiyatlarning ruhiyat va dunyoqarashiga ta‘sir o‘tkazish uchun shaxslarni va ijtimoiy guruhlarni bilvosita yashirish hamda majburlashga mo‘ljallangan texnologiyalarni ishga solmoqda. Buning uchun yangidan yangi metodlar ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi kunda jamiyatlar hayotini izdan chiqarish uchun paydo bo‘layotgan mafkuraviy maydonning murakkab qiyofaga ega bo‘lishi, mavjud mafkuralar strategiyasi o‘zgarishi, zamonaviy g‘oyaviy-mafkuraviy tashviqot usullari va texnik-texnologik vositalarning takomillashuvi nafaqat alohida olingan shaxsning ongiga, balki butun boshli xalqlar, millatlarning turmush tarziga ta‘sir o‘tkazish, har qanday jamiyatning hayoti va davlatlarning siyosatini tashqaridan turib boshqarish uchun sharoit yaratmoqda. G‘oyaviy-mafkuraviy ta‘sir mexanizmlari yildan-yil kengayib, kuchayib borayotgani natijasida ular qudratli siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy qurolga aylanayotganini, turli siyosiy kuchlar va markazlar manfaatlariga xizmat qilayotganini kuzatish mumkin.

Ayrim mafkuraviy maqsadlarni amalga oshiruvchi institutlar hamda markazlar tomonidan jamiyatlar va davlatlar o‘rtasidagi barcha chegaralar yo‘q bo‘lishi, butun insoniyat uchun yagona madaniyatni qaror toptirish shiori ostida xalqlarning madaniy-ma‘naviy o‘zagini zaiflashtirish maqsadlariga xizmat qiladigan g‘oyaviy xurujlar olib bormoqda. Ushbu konsepsiya G‘arbnning “demokratik” erkinliklarni targ‘ib etib, boshqa, ta‘bir joiz bo‘lsa, milliy g‘oyalar tarqatishini imkon qadar cheklashni nazarda tutayotgani hozirgi kunda hech kimga sir emas.



Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqida ana shunday xatarlarning oldini olish, jahon miqyosida dinlararo bag‘rikenglik va hamjihatlik g‘oyalarini keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekistonda UNESCO shafeligida Dinlararo muloqot va bag‘rikenglik xalqaro markazini tashkil etishni taklif qildi.

“Diyorimiz jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan, islomni ilm-ma‘rifat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy singari ulug‘ alloma va mutafakkirlar vatani ekan bilan haqli ravishda faxrlanamiz”, dedi davlatimiz rahbari.

Shunday buyuk olimlarning boy merosini o‘rganish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida 2024-yilda O‘zbekistonda “Islom — tinchlik va ezigulik dini” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazish tashabbusi ilgari surildi.

Hozir turli mafkuralar, xususan, siyosiy, diniy va hokazo mafkuralarning alohida metodlardagi dasturlari dunyoning turli nuqtalarida mavjud.

Ana shunday xatarlardan biri radikal mafkuralardir. Bu mafkuralar o‘zining keskinligi bilan har qanday jamiyatni vahimaga solishi, noixtiyoriy ravishda bo‘lsa-da, ortidan ergashtira olishi mumkin.

Gap radikal mafkuralar haqida borar ekan, avvalo, mazkur atamaning mazmun-mohiyatini aniqlashtirib olish lozim bo‘ladi. Radikalizm (lot. radix — ildiz) — muayyan hududlardagi tarixiy sharoit va davr voqealarini hisobga olmay, siyosiy tuzum va ijtimoiy institutlar bilan bog‘liq faoliyatni zudlik

O‘ZARO ISHONCH, BIRDAMLIK VA HAMKORLIK RUHI tinch hayotimiz, farovonligimiz uchun mustahkam asosdir



bilan tubdan o‘zgartirishga qaratilgan g‘oya va harakatlarni ifodalovchi siyosiy, diniy oqim. U umume’tirof etilgan qoida va an‘analarga butunlay zid munosabatda bo‘lib, keskin harakatlarni yoqlab chiqadi. Radikalizm mamlakatda mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan, alohida mafkuraviy uslubga ega bo‘lgan g‘oya va harakatlarni ifodalovchi tizimdir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, radikal mafkuralar nafaqat milliy, balki umume’tirof etilgan an‘analarga butunlay zid munosabatda bo‘libgina qolmay, o‘z maqsadiga erishish yo‘lida keskin harakatlarni ham yoqlab chiqadi. Hozirgi davrda radikal mafkuraga xos xarakterli xususiyatlardan biri mavjud ijtimoiy hayotning nazariy va amaliy muammolarini hal qilishda zo‘ravonlik usulidan foydalanishga moyillik namoyon bo‘ladi. Turli ko‘rinish va darajadagi muammolarni yechishda ham ular jismoniy kuch ishlatish usulidan foydalanishga intiladi.

Umuman, tarixning burilish nuqtalarida, jamiyat hayotida tanglik

boshqa ko‘rinishlari kabi o‘ziga mos kelmaydigan boshqa har qanday oqim va qarashlarga nisbatan murosasizlikda, vayronkor va g‘ayrinisoiy g‘oya hamda qarashlarni ilgari surishda aks etadi.

Hozirgi murakkab davrda radikal mafkuralarning inson ijtimoiy hayotining asosiy yo‘nalishlari bo‘lgan siyosat va ma‘naviyatga kirib borishi salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi, hatto siyosat va ma‘naviyatga putur yetkazishi mumkin. U siyosatda aqidaparastlik, irqchilik, shovinizm, global hukmronlikka da‘vo qilish, ayniqsa, “demokratiya eksporti” kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lsa, ma‘naviyatda vatangadolik, “ommaviy madaniyat” singarilarda aks etadi.

Radikal mafkuralarning yana bir muhim jihati etnomadaniy omil hisoblanadi. Uning asos markazida esa aksariyat hollarda diniy qarashlar turadi. Diniy-etnik radikalizmning siyosiy maydonga chiqishi jamiyat uchun xavfli ekstremizmning mafkuraviy asosiga aylanishi mumkin. Ushbu turdagi radikalizmga ega har qanday niqob ostidagi tashkilotlar davlat tizimini kuch bilan o‘zgartirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Natijada hokimiyatni qurolli ravishda egallab olish, nisbatan kuchsiz bo‘lgan davlatning suverenitetini buzish, kirib borgan hududlarida noqonuniy qurolli tuzilmalarni yaratish va tarqatish, etnik va diniy adovatni qo‘zg‘atish kabi siyosiy buzg‘unchiliklarni amalga oshiradi.

Radikalizmni, yuqoridagi kabi qarashlarni inobatga olib, jamiyat taraqqiyotini shakllantirishga aloqasi yo‘q bo‘lgan bir tomonlama yondashuv, deysh mumkin. U jamiyatda yuz berayotgan inqirozlar yoki ijtimoiy tizimdagi hamda davlat va jamiyatdagi qayta qurishlar vaqtida yanada faollashadi. Bu jarayonda jamiyat o‘zining taraqqiyot yo‘lini belgilab olish uchun muayyan vaqt va makonda harakat qiladi. Radikalizm esa imkon qadar tez inqirozdan chiqish yo‘llari sifatida barcha radikal vositalarni samarali qo‘llagan tarzda qisqa vaqt ichida islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi. Buning xavfli jihati shundaki, yoshlar xarakteridagi tezkorlik, ularning shijoat, tashabbus, yangicha fikrlashga intilish kuchli bo‘lgani sababli radikal mafkuralar, g‘oyalar ortidan ergashish hollari uchraydi.

Bu jamiyatni mafkuraviy tahdidlardan doimo ogoh bo‘lishga chaqiradi. Doimo sergak turish, ularning har qanday xurujlarga qarshi kurashish uchun nima qilish kerak?

Buning uchun, birinchidan, ijtimoiy hayotda bo‘ladigan har qanday o‘zgarishlardan xabardor bo‘lib turish, nazorat qilish zarur.

Ikkinchidan, navqiron avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlariga, madaniy durdonalarga hurmat ruhida tarbiyalash, ommaviy madaniyatga xos ayrim ko‘rinishlarga talab munosabatini, aksilmadaniyatga, turli buzg‘unchi g‘oyalar va axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, bunday faoliyatning uzluksizligini ta‘minlash uchun esa erishilgan natijalar, jamiyatdagi mavjud qarashlar tizimini o‘rganish va ularning tafakkurida sog‘lom fikrlarni shakllantirish uchun doimiy ravishda monitoringlarni tashkil qilish samarali natija beradi.

Davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, mustahkam tinchlik va farovonlikka faqat umumiy intilishlar va birgalikdagi harakatlar bilan erishish mumkin. Bizga o‘zaro ishonch, birdamlik va hamkorlik ruhi har qachongidan ham ko‘proq zarur.



DAVLAT DASTURI — AMALDA

YANGI IES — MINTAQADAGI
ETALON LOYIHA3,3 million xonadonning bir yillik
iste'molini qoplash imkonini beradiIroda ANVARJON qizi,
“Yangi O'zbekiston” muxbi

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda bu boradagi loyihalar, chora-tadbirlar ko'lami so'nggi yillarda bir necha barobar ortgani boisi shunda. Energetika sohasini rivojlantirish bo'yicha ulkan ishlar qilinmoqda. Yirik loyihalarning hayotga tatbiq etilishida xorijiy investitsiyalar muhim omil bo'lyapti. Ana shunday katta loyihalardan yana biri — Sirdaryo viloyatida qad rostlayotgan 1500 megavatt quvvatli zamonaviy bug-gaz elektr stansiyasi Saudiya Arabistonining yetakchi “ACWA Power” kompaniyasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari ishtirokida joriy yil 27-noyabr kuni mazkur zamonaviy elektr stansiyasining dastlabki 500 megavatt quvvatli ishga tushirilib, umumiy tarmoqqa ulandi. Stansiya yagona elektrlash tarmoqlari orqali yurtimiz aholisiga elektr energiyasi yetkazishni boshladi.

Investitsion loyiha Prezidentimizning 2020-yil 10-avgustdagi “Sirdaryo viloyatida quvvatli 1500 megavatt bo'lgan yangi issiqlik elektr stansiyasi qurilishini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida amalga oshirilmoqda. Qolaversa, ushbu vazifa Davlat dasturidan ham joy olgan.

Xorijiy investitsiya

Yirik elektr stansiyasi Sirdaryo viloyatining Shirin shahri va Boyovut tuman hududidagi 55 gektar maydonda qurilmoqda. Mutasaddilarning aytishicha, joriy yil yakuniga qadar stansiyaning quvvati bosqichma-bosqich 1000 megavattga, 2024-yilning birinchi choragida 1 ming 500 megavatt quvvatga chiqariladi. Stansiya to'liq ishga tushgach, bu yerda yiliga 12 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Mazkur hajm esa yurtimizdagi 3,3 millionta xonadonning bir yillik yoki barcha aholi iste'molchilarining qariyb 8 oylik iste'molini qoplash imkonini beradi.

Ushbu loyiha va u orqali yaratiladigan bunday katta quvvat mamlakatimiz energetika tizimidagi tarixiy voqeadir, — deydi Energetika vazirligi elektr energiyasini ishlab chiqarish bo'limi boshlig'i Ozod Oxunov. — Bunday yirik loyihalar har doim ham amalga oshirilavermaydi. Shu bois, davlatimiz rahbari yangi IES ham zamonaviyligi, ham tejamkorligi jihatidan Markaziy Osiyoda etalon loyiha ekanini ta'kidladi. Superzamonaviy stansiya jahon energetika tarmog'ida ham katta ahamiyatga ega. Unda ishlab chiqarish jarayoni to'liq avtomatlashtirilgan, inson omili nihoyatda kam. Shu tufayli IES to'liq ishga tushirilgach, stansiyada 120 ta ish o'rni yaratiladi.

Loyiha nafaqat quvvat jihatidan, balki o'ta zamonaviyligi bilan ham yaqin atrofdagi davlatlar tajribasi uchun yangilik sanaladi. Aytish joizki, mamlakatimizda yuqori quvvatli bir nechta issiqlik elektr stansiyalari mavjud. Ular orasida eng kattasi 3 ming megavatt quvvatga

ega bo'lib, u ham Sirdaryo viloyatining Shirin shahrida joylashgan. O'tgan asrda ishga tushirilgan bu stansiya hozirgacha ishlab kelyapti. Ammo u eski energiya bloklaridan iborat bo'lib, ish jarayonida katta miqdorda yoqilg'i, ya'ni tabiiy gaz talab qiladi. Uning yonida ishga tushirilgan zamonaviy IES esa undan bir barobar kam gaz sarflaydi. Foydali ish ko'effitsiyenti ham amaldagi stansiyalarniki kabi 30-40 emas, 60 foizdan yuqoridir.

Yirik loyihaning birinchi bosqichi ishga tushirilganining o'ziyoq katta qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Chunki 1 ming 500 megavatt kichik quvvat emas. Amaliy misol bilan tushuntirsak, mamlakatimizda 1991–2016-yillarda jami 3 ming 300 megavatt yangi generatsiya foydalanishga topshirilgan. Bu degani, hozir bitta loyihaning o'zi 25 yil ichida ishga tushirilgan quvvatlarning deyarli yarmiga teng.

Loyihaning umumiy qiymati 1,1 milliard dollar bo'lib, mazkur issiqlik elektr stansiyasi bunchalik katta miqdorda to'g'ridan-to'g'ri xorij investitsiyasini jalb qilgan birinchi ishlardan hisoblanadi. Ahamiyat bering: qiymat nihoyatda katta. Ammo investitsiyalar hech qanday davlat kafolatisiz jalb qilinmoqda. Investor esa yuqorida ta'kidlaganimizdek, Saudiya Arabistonining mashhur “ACWA Power” kompaniyasi. Bu kompaniya nafaqat o'z mamlakati, balki dunyo bozorida juda katta salohiyat va mavqega ega.



QR-KOD ORQALI VIDEOGA O'TING.

“Mamlakatimizda 2 xil toifadagi iste'molchilar bor. Birinchisi, yuridik shaxslar bo'lib, unga iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari, tadbirkorlik subyektlari kiradi. Ikkinchisi esa aholi xonadonlari bo'lib, ular 7,5 milliontani tashkil etadi. Mavjud ehtiyojni qondirish maqsadida o'tgan yili 74 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, joriy yil yakunida bu ko'rsatkich 80 milliard kilovatt-soatdan ortishi kutilyapti. Energetiklarimiz elektr energiyasi ishlab chiqarish bilan birga, tarmoqlarni ham yangilab boryapti.

Uning jahon bo'ylab umumiy investitsiya portfeli 80 milliard dollardan ortiq. “ACWA Power” nomi oxirgi yillarda



“ACWA Power” nomi oxirgi yillarda yurtimiz energetika sohasida ancha mashhur bo'lib, tez-tez tilga olinyapti. Boisi, kompaniya bu yo'nalishda eng katta investorlarimizdan hisoblanadi. Hozirgi kunda yurtimizda kompaniya ishtirokida 15 ta loyiha amalga oshirilyapti. Hududlarimiz bo'ylab birgalikda qurilayotgan quyosh va shamol elektr stansiyalarini alohida ta'kidlash mumkin.

yurtimiz energetika sohasida ancha mashhur bo'lib, tez-tez tilga olinyapti. Boisi, kompaniya bu yo'nalishda eng katta investorlarimizdan hisoblanadi. Hozirgi kunda yurtimizda kompaniya ishtirokida 15 ta loyiha amalga oshirilyapti. Hududlarimiz bo'ylab birgalikda qurilayotgan quyosh va shamol elektr stansiyalarini alohida ta'kidlash mumkin.

— Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida umumiy quvvati 1 ming 500 megavatt bo'lgan 3 ta, Buxoro viloyatida esa 1000 megavatt quvvatli shamol elektrostansiyalarini qurish, Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq

loyihalarimiz portfeli 20 milliard dollarga yetgani ham buning yaqqol tasdiqi bo'la oladi.

Tejamkorlik bir necha
barobar yuqori

Asrimizga kelib, nafaqat dunyo, balki mamlakatimizda ham elektr energiyasi ishlab chiqarishning muqobil manbalari, ya'ni qayta tiklanadigan suv, quyosh, shamol elektrostansiyalaridan foydalanish rivojlanib boryapti. Ammo baribir bu borada asosiy vazifa issiqlik elektr stansiyalari zimmasida. Mazkur korxonalarda elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun katta miqdorda neft, gaz, ko'mir singari tabiiy yoqilg'i manbalari zarur. Birgina misol, oxirgi uch yilda yurtimizdagi IESlarga yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmi 15 milliard kub metr dan 17 milliard kub metrga yetgan.

Sirdaryodagi yangi issiqlik elektr stansiyasining afzalliklaridan yana biri uning o'ta zamonaviyligi va tejamkorligida. Bunga eng ilg'or texnika va texnologiyalar yordamida erishiladi. Yaponiyaning “Mitsubishi” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan eng zamonaviy va energiyatejamkor gaz turbinalari o'rnatilayotgani hisobiga yiliga 1,1 milliard kub metr tabiiy gaz yetajishi hisob-kitob qilingan. Ushbu hajmdagi tabiiy gaz 458 ming 335 ta xonadonning bir yillik iste'molini tashkil etadi. Bu esa jami tabiiy gaz iste'molchilarining 11 foizi, degani.

— Ta'kidlash joizki, superzamonaviy stansiya 1 kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun 205 gramm shartli yoqilg'i sarflaydi, — deydi Ozod Oxunov. — Yurtimizdagi eski stansiyalarda bu ko'rsatkich 350-400 grammga yaqin. Demak, tejamkorlik ikki barobarga teng. Tejalgan tabiiy gaz shu stansiyaning o'zida yana qo'shimcha 6 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Qolaversa, “Sirdaryo” IESda sovitish tizimi va boshqa texnologik suv sarfi juda past. Zararli chiqindilar darajasi ham nihoyatda kam, tabiatga 720 ming tonna zaharli gazlar chiqishining oldi olinadi.

Mamlakatimizda 2 xil toifadagi iste'molchilar bor. Birinchisi, yuridik shaxslar bo'lib, unga iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari, tadbirkorlik subyektlari kiradi. Ikkinchisi esa aholi xonadonlari bo'lib, ular 7,5 milliontani tashkil etadi. Mavjud ehtiyojni qondirish maqsadida o'tgan yili 74 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, joriy yil yakunida bu ko'rsatkich 80 milliard kilovatt-soatdan ortishi kutilyapti. Energetiklarimiz elektr energiyasi ishlab chiqarish bilan birga, tarmoqlarni ham yangilab boryapti. Bu borada bir qancha dasturlar qabul qilinib, aniq vazifalar belgilangan. Jarayonda elektr energiyasi samaradorligini oshirish, energiyatejamkor texnologiyalardan foydalanishga ham alohida e'tibor qaratilyapti.

Ana shunday harakatlar mahsuli bo'lgan Sirdaryodagi yangi issiqlik elektr stansiyasining ishga tushishi bilan yaratilgan yangi quvvat ham aholini doimiy, ayniqsa, yaqinlashayotgan qish mavsumida elektr energiyasi bilan ta'minlash ko'rsatkichlarini oshirishga sezilarli hissa qo'shadi. Kelgusida elektr energiyasini qo'shni davlatlarga yetkazib berish imkoniyatini ham yanada kengaytiradi.



ZAMONAVIY AGROLOGISTIKA

Tahillarga ko'ra, meva-sabzavot va poliz mahsulotlarining ichki iste'moldan ortiq qismini to'g'ridan-to'g'ri yoki qayta ishlangan holda eksportga chiqarish O'zbekiston uchun jahon bozorida katta imkoniyatlar yaratadi. Soha yildan-yilga rivojlanayotgan bo'lsa-da, hali ishga solinmagan resurslar juda ko'p.

XALQARO BOZORLARGA
“YASHIL YO'LAK”
YARATILMOQDA

Prezidentimiz o'tgan yili Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston va Rossiya II mintaqalararo hamkorlik forumida Rossiyaning “Национальная резервная корпорация” si bilan hamkorlikda Jizzax viloyatida agrologistika kompleksi loyihagini qurish tashabbusini bildirgan edi.

Tashabbus qisqa fursatlarda ro'yobga chiqarildi. Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanida “BMB-NRC Agrologistics” O'zbekiston — Rossiya qo'shma korxonasining birinchi navbati tantanali ravishda ishga tushirildi. Tadbirida so'zga chiqqanlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini Rossiya va boshqa mamlakatlarga tezkor hamda to'siqsiz eksport qilishi rejalashtirilgan mazkur korxona o'zaro samarali hamkorlikning yorqin namunasi ekanini ta'kidladi.

PZR test va laboratoriya jihozlari o'rnatildi.

Majmuada qolib ishlaydiganlar uchun 50 o'rinni mehmonxona bor. Ishchi-xizmatchilar issiq ovqat bilan ta'minlanadi. — Bu majmuaning ishga tushishi meva-sabzavot yetishtiruvchilar uchun g'oyat ahamiyatli. Zero, endi dehqon va fermerlar yerdan ko'proq daromad olishiga katta imkoniyat yaratildi, — deydi Sharof Rashidov tumanidagi fermer Abdunabi Abdurahmonov.

Tadbir doirasida qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi 150 dan ortiq yirik korxona vakillari tomonidan hududlarning eksport salohiyatini namoyish etuvchi ko'rgazma tashkil etildi. Eksportyorlar va importyorlar o'rtasida amaliy muloqotlar bo'lib o'tdi. B2B formatida sheriklik aloqalarini o'rnatish bo'yicha qator kelishuvlarga erishildi. “BMB-NRC Agrologistics”da faoliyat yurituvchi barcha xizmatlar



— Mamlakatimizda har yili 23 million tonnadan ortiq meva-sabzavot yetishtirilib, 3,5 million tonnadan ortig'i qayta ishlanadi. Faqat bir yarim million tonnasi tashqi bozorlarga ho'l holda eksport qilinadi, — dedi Qishloq xo'jaligi vazirligi boshqarma boshlig'i Bahodir Yunusov. — Bugungi kunda yurtimizda 76 ta agrologistika markazi bor. Ularning umumiy sig'imi 893 ming tonna. Yangi “BMB-NRC Agrologistics” qo'shma korxonasi mazkur soha O'zbekistonda yangi bosqichga chiqqanidan dalolat beradi. Bu yerda eksportyorlarga barcha zaruriy sharoitlar yaratilgan. O'ziga xos noyob kompleksda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saralash, qayta ishlash, qadoqlash, saqlash, bo'xona, bank va sanitar hujjatlarini “Yagona darcha” tamoyili asosida rasmiylashtirish, transport, logistika xizmatlari ko'rsatish kabi amaliyotlar

mutaxassislari esa shu yerning o'zida mehmonlarni qiziqtirgan savollarga javob berdi.

Korxonaning rasmiy ochilish marosimi qatnashchilari “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida majmua hududida bog' yaratish maqsadida ko'chat ekish aksiyasida ishtirok etdi.

Tadbir davomida qo'shma korxonaning yaqin vaqt ichida boshlanishi rejalashtirilgan meva-sabzavotlarni sublimatsion quritish va shok usulida muzlatishni nazarda tutuvchi umumiy qiymati 225,1 milliard so'm bo'lgan navbatdagi bosqichlari qurilishi poydevoriga ramziy kapsula qo'yildi.

— O'zbekistonda yetishtirilgan sarxil meva va sabzavotlar ta'mini ta'riflashga til o'z va tashqi bozorda reklamaga muhtoj emas, — deydi Rossiya Davlat dumasi deputati Sergey Lisovskiy. — Rossiya xalqi bu yerda



joriy etilgan. Eksportyorlarimiz shu yerda “Rosselkhozadzo”ning doimiy faoliyat ko'rsatadigan akkreditatsiyalangan laboratoriyasi sertifikatlari bilan Rossiya va boshqa mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri eksportni yo'lga qo'yishi mumkin.

Zamonaviy majmuaning umumiy loyiha qiymati 709,71 milliard so'm bo'lib, qurilishi uch bosqichli modul shaklida amalga oshirilishi rejalangan. Bu yerda 10 ming tonna sig'imga ega muzlatkichli kameralar va omborlar mavjud bo'lib, loyiha to'liq ishga tushirilgach, 810 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkonini beradi. Kompleksning ishga tushirilgan dastlabki modulida esa yiliga 270 ming tonnagacha mahsulotni qabul qilish imkoni yaratilgan.

Bu yerda hozirning o'zidayoq 180 ta doimiy, 400 dan ziyod mavsumiy ish o'rni yaratilmoqda. Majmua to'liq quvvatda ishga tushirilgach, 1410 kishi doimiy ish o'rninga ega bo'ladi.

O'tgan davr mobaynida loyiha doirasida 484,62 milliard so'm miqdorida investitsiya o'zlashtirilib, kompleks to'laqonli faoliyat yuritishi uchun zarur infratuzilma yaratildi. Xususan, Bo'xona qo'mitasi, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, “O'zsanootqurilishbank”ning hududiy filiallari, fitosanitar va sanitar-epidemiologik sertifikatlashlar uchun

yetishtirilgan meva-sabzavotlarni sevil iste'mol qiladi. Biz O'zbekistonda yetishtirilgan tabiiy mahsulotlarni sotib olishga hamisha tayyormiz. Afsuski, mana shunday zamonaviy agrologistika markazlari kamligi, meva va sabzavotlarni belgilangan me'yorda saqlash, qadoqlash, yetkazib berishdagi muammolar sabab bu boradagi ishlarimiz talab darajasida emas edi. Ishonamanki, mana shunday hamkorligimiz natijasida yaqin kelajakda serquyosh yurtingidagi yetishtirilgan tabiiy, sarxil meva-sabzavotlarni Rossiya va Yevropa davlatlari bozorlariga to'g'ridan-to'g'ri eksport qilish hajmi yanada oshadi.

Respublikamiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan meva-sabzavotchilikni modernizatsiyalash maqsadida amalga oshirilayotgan bu kabi loyihalar sohani barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishga, uning raqobatbardoshligini ta'minlashga, agrar ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga, pirovardida esa eksport salohiyatini yuksaltirib, iqtisodiy taraqqiyot tezlashishi va xalqimiz farovonligi oshishiga xizmat qiladi.

Farhod NE'MATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



O‘zbek olimasining mikrobiologiya sohasidagi tadqiqotlari dunyo e’tirofida



Boshlanishi 1-betda

Yurtdoshimiz o‘simlik va mikro-bioma-larning o‘zaro ta’siri, o‘simliklarning stressga chidamliligi, tuproq biologiyasi va mikroblar xilma-xilligi sohasidagi uzoq yillik tadqiqotlari uchun xalqaro miqyos-da e’tirof etildi. Olima Fransiyaning Parij shahrida bo‘lib, mukofotni shaxsan qabul qilib olganida o‘zgacha g‘ururni tuyganini yashirmaydi.

— Parij tomon borar ekanman, qandaydir hayajon, xursandchilik bilan birga, O‘zbekiston ilmi dunyoga chiqaypti, degan g‘ururni his qildim, — deydi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining biologik tadqiqotlar va oziq-ovqat sifati laboratoriyasi rahbari, mikrobiolog Dilfuza Egamberdiyeva. — Atrofimdagi juda ko‘p insonlar ham meni tabriklash chog‘ida aynan ayollarning ilmdagi qadamlariga urg‘u berdi. Bu men uchun ikki karra faxr. Qolaversa, xayolimdan bekorga shuncha yildan beri ilm-fan sohasida faoliyat olib bormayotgan ekanman, ishlarim jamiyatga yordam berib, dunyo miqyosida tan olindi, degan o‘ylar o‘tdi. Bu mukofot jahon bo‘yicha mikrobiologiya sohasida katta tadqiqotlar qilgan olimlarga beriladi. U mashhur kubalik shifokor va mikrobiolog Karlos Xuan Finley sharafiga qo‘yilgan bo‘lib, ikki yilda bir marotaba tanlangan nomzodga topshiriladi. Bundan ikki yil oldin yaponiyalik olimga nasib etgandi. Bu yil esa 40 dan ortiq da’vogar orasidan munosib ko‘rilganini men uchun kutilmagan hol bo‘ldi. Parijdagi UNESCO qarorgohida ko‘lib o‘tgan taqdirlash marosimida o‘zbekistonlik olimam, deb chaqirishganida, qalbmimdan o‘tgan faxr tuyg‘ularini so‘z bilan tasvirlab berolmayman.

Difuza opaning tadqiqotlari barqaror qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan. Asosan, qurg‘oqchilik, sho‘rianih, yuqori harorat kabi sharoitlarda qishloq xo‘jaligi o‘simliklarining hosildorligini oshirishda mikroblardan foydalanish imkoniyati ustida ish olib boradi. O‘simlik, tuproq va suv mikroblari orasidagi aloqalarni o‘rganib, ulardan biologik o‘g‘itlar yaratgan. Ayni paytda yurtimizda bioo‘g‘it va bioko‘mirni sinovdan o‘tkazish, amaliyotda qo‘llash kabi katta loyihalarga bosh-qosh bo‘lmoqda.

20 yildan keyin O‘zbekistonga qaytish...

Olima bilan suhbatlashish uchun borarkanman, ilmiy faoliyati, mamlakatimizda olib borgan tadqiqotlari

haqida so‘rashni o‘ylagandim. Ammo uning 20 yil xorijda yashab, o‘z yo‘nalishida professor darajasigacha chiqqani, bir yil avval davlatimiz tomonidan berilgan taklif asosida yurtimizga qaytganini eshitib, hayratim oshdi. Vatandan ketish, xorijdagi ilmiy faoliyat va ona yurtga qaytish maqsadi meni yanada qiziqitirib qo‘ydi.

— 1993-yilda O‘zbekiston Milliy universitetini tamomlagach, Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutida laborant sifatida ishlay boshladim, — eslaydi Dilfuza opa. — Kunlar o‘tar, men esa shunchaki ishga kelib-ketardim. Ilm nima ekan, maqsadim nimaligini anglolmasdim. U vaqtlar vaziyat shunday edi, ilm qilishga sharoit ham bo‘lmagan. Mustaqillikdan keyin yurtimizda xorijiy davlatlarning elchixonalari ochila boshladi. Birinchilar qatorida Germaniya elchixonasi ish boshladi va yosh olimlar stipendiya asosida olmon yurtiga o‘qishga yuborildi. Men ham stipendiya sohiblari qatorida Germaniyada, Berlindagi Gumbald universitetida qishloq xo‘jaligi bo‘yicha aspirantura bosqichida tahsil oldim.

U yerga borganimdan keyin ilm nima ekanini tushundim. Bir nemis olimasiga shogirdlikka tushdim va ustoz insonning butun hayotini o‘zgartirib yuborishi mumkinligiga shaxsan amin bo‘ldim. Nemis olimasi meni ilimga chuqur kirishim, bundan ko‘p narsa topishimni aytdi. Men ham unga ishonimdan yoki ishonishni istadim, har holda ichimdagi ilimga bo‘lgan ishtiyoq, chanqoq shunchaki sarob emas ekan. Shu ondian ilm yo‘lidan ketdim, ishlay boshladim. Avvaliga kunlarning bir xilda o‘tishi meni zeriktirgan bo‘lsa, keyinroq ustozimning “Inson umrining asosiy qismi ishda o‘tar ekan, hayotim mazmunini sevimli kasbidan topishi kerak, shundagina yashadim, deysan”, deb aytgan so‘zlari menga katta saboq bo‘ldi. Ishimni, tanlagan kasbimni seva boshladim, erishgan natijalarim ham shuning mahsuli bo‘lsa kerak.



O‘sha yillari meni yana bir narsa hayratga soldi. Biz sobiq sovet davrida o‘qiganimiz uchun O‘zbekiston tarixini deyarli bilmasdik. Shuning uchun nemis ustozim mendan “Sen o‘zbek ayolisan, Vatanninga qaytganingda muammo bo‘lmaydimi, bir vaqtlar bizga o‘qishga kelgan Turkiston yoshlari, xususan, xotin-qizlarining kuni boshingga tushmaydimi”, deb so‘raganida hech narsani tushunmadim. Keyinchalik bu haqida bilib, angladimki, o‘sha turkistonlik

yoshlarning taqdiri nemislarga qattiq ta’sir qilgan va O‘zbekistonda hamon bu holat bor, degan tushunchada bo‘lgan. Bu mamlakatda o‘qimishli ayollar ta’qibga uchraydi, degan qarash mavjud edi.

Hozir bari o‘zgarгани, yurtimiz ilm-fanga keng yo‘l ochayotgan davlatlar qatorida e’tirof etilayotganidan quvonaman. O‘zbek



xotin-qizlari har sohada faollik ko‘rsatib, istalgan yo‘nalishida o‘qiypapti, ilm qilyapti, ishlab, jamiyatda o‘z o‘miga ega bo‘lyapti. Ko‘plarining nomlari xalqaro maydonlarda tilga olinaypti. Xorijdagi nufuzli universitetlarda o‘qib, katta tashkilotlarda ishlaypti.

Insonning qayerda yashashi muhim emas, uning hayotiy maqsadlari ahamiyatliroq. O‘zim ham uzoq yillar xorijda yashab, rus, ingliz, nemis, fin tillarida erkin so‘zlasha olishimga qaramay, o‘zbek bo‘lib qolaman. Va qayerda bo‘lmay, mening maqsadim ilm-fanda yangilik qilishdan iborat. Germaniyada tahsil olgach, Finlyandiyaning Xelsinki universitetida ikki yil amaliyot o‘tab, iqlim o‘zgarishi, tuproq hosildorligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib

instituti ochilishi, bu yerda eng ilg‘or texnologiyalar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borilishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan eng zamonaviy, jahon standartlariga mos laboratoriyani ochish maqsad qilinganini aytishdi. Bu taklif meni qiziqitirib qo‘ydi va rozi bo‘ldim. Bungacha O‘zbekistonga qaytish haqida



o‘ylamaganman, chunki ilm qilish uchun yetarlicha sharoit bo‘lmagan. Hozir esa davlat bizga har tomonlama yordam berib, qo‘llab-quvvatlashini, ilmiy markaz uchun nima kerak bo‘lsa, yetkazib berishini aytishdi va shunday bo‘lyapti ham.

Ilmiy-tadqiqot instituti ochilganiga bir yil bo‘ldi va chindan ham bu yerda yurtimiz bo‘yicha eng yuqori salohiyatli olimlar, xorij davlatlarida ilm qilib, o‘z sohasida katta yutuqlarga erishgan vatandoshlar to‘plandi. Ularning har biri qaysidir yo‘nalishga mas’ul. Men biologiya tadqiqotlari va oziq-ovqat sifati laboratoriyasiga rahbarlik qilyapman. Laboratoriyada barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, ekologiya, havo ifloslanishini kamaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, iqlim o‘zgarishlarini yumshatish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Hozirgi kunda ta’minlash ishlari to‘liq yakuniga yetdi va yaqin kunlarda rasmiy ochilishi bo‘ladi. Turli davlatlardan eng zamonaviy asbob-uskunalar, qurilmalar olib kelinaypti.

Asosiy hamkorimiz esa Xitoy davlati. Chunki birinchidan, Chin diyorining Markaziy Osiyo davlatlariga qiziqishi katta va O‘zbekistonda ham hamkorlikda ishlash maqsadida bir nechta laboratoriya ochdi. Ikkinchidan, Xitoy texnologiyalari juda rivojlangan, ilmda ham nihoyatda oldinlab ketgan. Ular super kompyuterlarda, genom erasida ishlaydi. Biz bu yerda mikroblar va o‘simliklarning DNK larini ajratsak, Xitoy davlati o‘zining eng oxirgi texnologiyalari yordamida ularning xususiyatlarini chuqur aniqlab beradi. Har yili eng zamonaviy asbob-uskunalar, ilg‘or texnologiyalarni laboratoriyamizga yuborishi borasida ham hamkorligimiz bor.

Umuman, institutdagi Biologiya laboratoriyasi dunyoning rivojlangan davlatlariniki kabi katta ilmiy markaz bo‘ladi. Eng dolzarb ekologik muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar izlanib, zamonaviy usullar ishlab chiqiladi. Yosh olimlar, talabalar esa bu yerda amaliyot o‘tashi, ilmiy tadqiqot jarayonida ishtirok etishi mumkin.

Har muammoning ilmiy yechimi bor

Ilm yo‘li juda chuqur, uning tubiga yetib borgan inson bo‘lmasa kerak. “Ilmdan bir shu’la dilga tushgan on, shundan bilursankim ilm bepoyon”, degan edi Abulqosim Firdavsiy. Ammo mana shu bepoyonlikda insonga kuch beradigan bir mujda bor, u ham bo‘lsa, o‘zingdagi ilming boshqalargaberadiganmanfaatini ko‘rishdir. Difuza Egamberdiyeva ham doim shu maqsad bilan yashaydi, qilayotgan ishini jamiyatga, odamlarga foydasi tegishiga intiladi. Mikrobiologiyaning qishloq xo‘jaligi yo‘nalishini tanlaganida ham shular haqida o‘ylagan. Bugun esa ilmiy tadqiqotlari orqali sayyoramiz aholisiga jiddiy xavf solayotgan iqlim o‘zgarishlari, suv tanqisligi, oziq-ovqat xavfsizligi kabi muammolarga zamonaviy va samarali yechimlar taklif etyapti.

— Mikroblar asli ko‘zga ko‘rinmas zarralar. Ammo mana shu mitti zarralar biz, olimlar tili bilan aytganda, dunyoni boshqaradi, — deydi olimam. — Buni kovid virusi tarqab, yer yuzidagi harakatni to‘xtatib qo‘ygani ham ko‘rdik. Insonning tanasi ham 70 foiz mikroblardan tashkil topgan va salomatligimizdan tortib, iste’molimizgacha — bari ana shu mikroblar bilan bog‘liq. Shuning uchun biz ularni yaxshi bilsak, o‘rgansak, o‘zi nima xohlaydi, nima uchun kasallik tug‘diradi, degan savollarga javob topsak, ular bilan kelishib yashashimiz mumkin. Men qishloq xo‘jaligi mikrobiologiyasini tanlaganman. Organik mahsulotlari yetishtirish uchun mikroblardan bioo‘g‘itlar yaratish ustida ishlayman. Hozir jahonda organik mahsulot yetishtirish ancha jadallashgan. Ammo O‘zbekiston bu borada ancha orqada, aniq harakatlari oxirgi yillardagina boshlandi.

Yurtimizda chiqindilarni qayta ishlash darajasi ham nihoyatda past, deyarlari yo‘q. Vaholanki, har qanday chiqindini qayta ishlash mumkin. Biz hozir biologik chiqindilarni qayta ishlash orqali bioo‘g‘itga aylantirish ustida ishlayapmiz. Bu ham arzon o‘g‘it bo‘ladi, ham ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi va u qishloq xo‘jaligi o‘simliklari hosildorligini bir necha barobar oshiradi.

Umuman, menga mamlakatimizdagi ekologik muammolar, havoning ifloslanishi, oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha ko‘p savol berishadi. Muammolarning aksari olimlar va zamonaviy texnologiyalar yetishmasligi, ilm-fan, tadqiqotlarga yetarlicha mablag‘ ajratilmagani bilan bog‘liq, deyman. Shular sabab yillar davomida ko‘plab sohalar rivojlanishdan ortda qolgan. Bunday muammolarni yechish uchun esa, avvalo, olimlar, qolaversa, yangicha texnologiya, zamonaviy asbob-uskunalar zarur. Shu bois, O‘zbekistonda ayni shu jihatlariga katta e’tibor qaratilyapti. Yurtimizda keyingi yillardagina ilimga keng yo‘l ochildi. Hatto xorijda ishlayotgan o‘zbek olimlarining o‘zimizga qaytib, katta loyihalarga qo‘shilayotgani bular shunchaki gap emas, balki amaliy ishlar ekanini tasdiqlaydi.

Difuza opa Jahon banki hamkorligidagi yirik loyihaga ham rahbarlik qilyapti.

Umumiy qiymati 500 ming dollarga teng loyihaning maqsadi O‘zbekistonda dukkakli o‘simliklar o‘shirishini yaxshilab, hosildorlikni oshirishga qaratilgan. Olimaning aytishicha, yurtimizdagi yerlarning ko‘p qismi sho‘rlangan bo‘ls, dukkakli o‘simliklar hosildorligi nihoyatda past. Qolaversa, 50 yillardan ortiq vaqt davomida, asosan, paxta ekilgani hisobiga tuprog‘imiz unumdorligini yo‘qotgan. Bu hozir qishloq xo‘jaligidagi eng katta muammolarimizdan biri. Ushbu masalaning yechimi sifatida olimlar paxta o‘rniga boshqa o‘simliklarni almashlab ekishni tavsiya etyapti.

Bu borada dukkakli o‘simliklar ancha qulay. Ular bioxilma-xillikni yaxshilash barobarida oqsili qo‘shnting o‘rnini bosar ekan. Tuproq unumdorligini oshirishda ham foydali. Shu bois, loyiha doirasida fermerlar bilan hamkorlik qilinadi. Hozircha, asosan, no‘xat va moshning hosildorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilyapti. Buning uchun yangi texnologiya, bioo‘g‘itlar yaratilib, fermerlar maxsus kurslarda o‘qitiladi. Loyiha uchun Toshkent, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarining qurg‘oqchil yerlari tanlangan. Keyinchalik bu tajribalar yurtimizning barcha hududida amalga oshiriladi.

Qahramonimiz loyihalar bilan bir vaqtda hududlardagi tuproq, o‘simliklar va ulardagi mikroblarni muntazam o‘rganib, ularning ekologik muhitga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar olib boradi. Iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat sifati bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadi.

— Iqlim o‘zgarishi hozir dunyoda kechayotgan eng global jarayon va uni to‘xtatib bo‘lmasligini barchamiz bilamiz, — deydi D. Egamberdiyeva. — Faqatgina uning oqibatlarini yengillashtirishimiz mumkin va buning uchun barcha davlatlar birgalikda harakat qilishi lozim. O‘zbekistonda ham bu borada harakatlari boshlangan, lekin bu hali juda o‘z. Hozir yurtimizda qilishimiz kerak bo‘lgan bir qancha o‘ta dolzarb vazifalar bor. Bular suv tanqisligi muammosini hal etish, havoning ifloslanishini kamaytirish hamda yerlarning hosildorligini oshirish. Har biri bevosita oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan muhim omillar.

Masalan, qurigan Orolni olaylik. Uning tonnalab tuzlari chang bilan shaharga keladi va buni to‘xtatib qolish juda katta ilmiy masala. Shahar havosining ifloslanishi ham tobora katta muammoga aylanib boryapti. Buning sabablari talay. Birgina misol, hozir poytaxtimizda avtomashinalar shu qadar ko‘pki, Jakarta shahriga o‘xshab ketgan. To‘g‘ri, bu aksar katta va rivojlangan shaharlarga xos jihat, ammo ushbu transport vositalaridan kuniga qancha zaharli gaz chiqarishini tasavvur qilavering. Biz ularni kamaytirish olmas ekanmiz, demak, mashina gazlarini filtrlash, elektromobillarni ko‘paytirish kabi zamonaviy yechimlarni qo‘llashimiz kerak. Buning bari ilimga borib taqaladi. Demak, ilm-fanni rivojlantirish, yoshlarni ilimga qo‘proq jalb qilish lozim. Shundagina doim muammolar haqida emas, balki ularning ilmiy asoslari, yangi tadqiqotlar, katta ixtirolar haqida suhbatlashamiz.

Iroda TOSHMATOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

KONFERENSIYA

HAKIM TERMIZIY MEROSIGA QIZIQISH tobora ortib borayotganining boisi nimada?

Davlatimiz rahbari shu yil 16-noyabr kuni Surxondaryo viloyatiga tashrifi avvalida **Hakim at-Termiziy yodgorlik majmuasini** ziyorat qilishi chog‘ida bir guruh ulamolar bilan suhbatda bugun dunyoda turli nizo va urushlar bo‘layotgani, begunoh insonlar qoni to‘kilayotganini afsus bilan qayd etdi. Mana shunday sharoitda milliy-diniy qadriyatlarimizni aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida targ‘ib etishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tildi. Tinchlik, osoyishtalik qadrimi yanada teran anglash, kishilarda shukronalik hissini oshirish, shu bilan birga, Termiziyilar ilm-ma’rifatini yoshlarga yetkazish muhimligi ta’kidlandi. Ayni maqsadda Termizda ilmiy konferensiya o‘tkazish taklifi bildirildi.



Shunga binoan, joriy yil 22-23-noyabr kunlari Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Turizm qo‘mitasi bilan hamkorlikda Termiz shahrida nufuzli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Unda Turkiya, Marokash, Kuvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Fransiya, Rossiya, Eron, Jazoir, Buyuk Britaniya, Markaziy Osiyo davlatlari hamda yurtimizdan tanqli olimlar, dunyoning nufuzli universitetlari, ilmiy-tadqiqot markazlari vakillari ishtirok etdi. Xalqaro tadbirda “Movarounnahrda hadis ilmining rivoji”, “Imom Buxoriy, Dorimiy va Termiziy allomalarning hayoti hamda ilmiy merosi, ularning zamonaviy tadqiqotlarda o‘rganilishi” kabi mavzular muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy kabi ulug‘ ajdodlarimizning siyrati, ularning o‘lmas asarlari va chuqur ilmiy g‘oyalari yanada izchil o‘rganish, mu’assas tadqiq va keng targ‘ib etishda xalqaro miqyosda o‘tkazilayotgan anjumanlarning o‘rni katta. Musulmon ahli uchun Qur’oni karimdan keyingi manba sanalmish “Sahih ul-Buxoriy”, “Sunani Termiziy”, “Sunani Dorimiy” kabi jahonshumul

manbalar o‘rni va uning hadisshunoslik ilmidagi ahamiyati urg‘ulandi.

— Imom Buxoriy haqida uzoq vaqt davomida ko‘plab tadqiqotlar qilingan bo‘lsa-da, Dorimiyga oid tadqiqotlar cheklangan. Bir mintaqadagi ikki buyuk muhaddis imomning o‘ziga aloqalari bor-yo‘qligi va ulardan biri ikkinchisining rivoyatlaridan, hatto asarlaridan bahramand bo‘lganini aniqlashga harakat qildik. Bu yo‘nalishdagi ishlarimizni davom ettiramiz, — dedi Anqara universiteti professori Bunyamin Erul.

Anqaradagi Boyazid Yildirim universiteti dotsenti Ferhat Go’kche o‘z ma’ruzasida Turkiyada Hakim Termiziy merosini o‘rganishga e’tibor tobora kuchayib borayotganini qayd etdi. Jazoir islom fanlari va sivilizatsiyasi tadqiqotlari markazi direktori Ahmad Binsag’ir o‘z yurtida muhaddislar sultoni Imom Buxoriyning “Sahih ul-Buxoriy” kitobi juda qadrlanishini alohida ta’kidladi.

Har bir ma’ruzachi ulug‘ muhaddislar boy ilmiy merosining muhim jihatlari yoritib, tinglovchilarda katta taassurot qoldirdi.

Ilhom RAHMATOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



MA'NAVIYAT

TAFAKKURNI

yoritguvchi mash'al

E'zoza KARIMOVA,
“Yangi O'zbekiston” universiteti
prorrektori, sotsiologiya fanlari
nomzodi, dotsent



O'zbek pedagogika fanining asoschisi Abdulla Avloniy “Ilm dunyoning lazzati, ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir va u bizga o'z ahvolimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni va fikrimizni o'tkir etur” deganda to'la haqli edi. Ilm jaholat va zalolatga yo'l bermaydigan, insonlar hayot yo'lini yoritadigan mash'aldir. Uning asosini esa ma'naviyat ma'rifiy masalalar tashkil etadi.

Bugungi eng og'riqli muammolardan biri ilmsizlikdir. Har qanday nomaqbul illatlardan jamiyatni, xususan, yoshlar

ongini himoya qilishning birdan-bir yo'li ma'rifat va ma'naviyatga yetarli ahamiyat berishdan iborat. Ma'naviyat ham ilm bilan



oziqlantirib boriladi. Ta'lim jarayonini ham tarbiyaviy ishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'rifati oilalar aynan farzandlari tarbiyasi jarayonida axloqiy poydevorni to'g'ri qurish orqali jamiyatga naf keltiradi. Bola dastavval oilada ota-onasidan eshitgan, ko'rgan-bilganlariga amal qilsa, so'ngra bog'cha, maktab, kasb-hunar maktabi, oliy ta'lim muassasasida murabbiy va o'qituvchilar ko'magida o'zining ma'naviy dunyosini boyitib, rivojlantirib boradi.



Davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan mahalla tizimida ham yoshlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, ularni ish bilan ta'minlash, notinch, nosog'lom muhitdagi oilalarni aniqlash va shunday oilalarda voyaga yetayotgan yoshlar bilan alohida ishlash masalalari doimiy e'tiborga olingani ham aynan ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

Xalqimizda “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”, degan ibora bor. Bu bejiz emas. Aynan mana shu qadriyat orqali nazar solish mahallada jinoyatchilik, beboshlik illatlarining urchishiga yo'l qo'ymagan.

Ana shu jarayonda oila — mahalla — ta'lim tizimi jamiyatimizda ma'rifati yoshlar ko'payishiga va ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mamlakatimizda hatto ta'limdan tashqaridagi sohalar uchun ham ma'naviyat va ma'rifat masalasi — muhim jabha. Bu borada har bir tashkilot va muassasada Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, Ma'rifat targ'ibotchilari

liboslarimizda faxr va g'urur bilan chiqishi, yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarib, madhiyamizni baralla kuylayotganini Vatanga, el-yurt taqdiriga daxldorlik deb bilishi har qanday kishini ta'sirlantiradi. Ma'naviyatimizni yo'qqa chiqarmoqchi bo'lganlar, bu masalani jiddiy qabul etmayotganlar adashadi.

Prezidentimiz aytgan mana bu so'zlarga e'tibor bering: “Ma'naviyatimiz, g'urur-iftixorimiz birinchi o'ringa chiqadigan vaqt keldi. Farzandlarimizni ana shunday yetuk avlod qilib tarbiyalash uchun barchamiz mas'ulmiz. Biz buning uchun mablag' va vaqtni ayamaymiz”.

Davlatimiz rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan turib, barchani birlamlikka chorlashi ham yuksak ma'naviy qiyofaga ega ekanimizning yaqqol isbotidir. Inson va uning ma'naviy kamoloti uchun shart-sharoit yaratish bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarimizning asosiy maqsadini tashkil etadi. Xalqimizning boy ma'naviy-intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlar, iqtisodiyot, fan, madaniyat va zamonaviy texnologiyalar yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

Taraqqiyot yo'lini tanlagan yurtimizda “O'zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida belgilangan Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo'nalishidagi islohotlarda yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg'ul bo'lishini ta'minlash maqsadida “Kreativ park”lar faoliyatini tashkil etish, ularga yoshlarni jalb qilish hamda zamonaviy kasblar va chet tillarga o'qitish tizimini yaratish bilan birga, maktab bitiruvchilari kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta'minlash belgilangan.

Shuningdek, Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy

faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o'yinlarni o'rganishga jalb etish orqali yoshlar iqtidorini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Strategiyaga muvofiq, har yili yoshlarni xorijning nufuzli oliygohlariga o'qishga yuborish belgilangan. Ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Yoshlar bandligini ta'minlash va muammolarini hal qilishga erishish ham asosiy ustuvor ahamiyat kasb etgan. Zamonaviy axborot texnologiyalari bugun dunyoni hayratga solmoqda. Ana shunday zamonaviy kasbga o'qitish va IT sohasida yoshlarni ish bilan ta'minlashda ularning iqtidorini shakllantirish ham ko'zda tutilgan g'oyat ahamiyatlidir.

Ilmiy va sotsiologik tadqiqotlar bilan jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning barcha asosiy masalalarini qamrab olishga erishish kabi yurtimiz taraqqiyoti uchun g'oyat muhim bo'lgan masalalar, ilgari surilgan g'oya va tashabbuslarni amalga oshirish jarayonida biz, ziyolilar birlamlik va o'zaro hamjihatlik ruhida faoliyat olib bormog'imiz shart.

Ma'naviy tarbiya ishlarida ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'yish nihoyatda xatarli. Ma'naviyat jamiyat hayotining shunday bir nozik, ahamiyatli sohasiki, bu borada shunchaki ish qilish yaramaydi. Qalb qo'ri bilan, daxldorlik tuyg'usi bilan, yelkamizda ulug' bir mas'uliyatni his etgan holda faoliyat olib bormog'imiz lozim. Albatta, yoshlarda ma'naviyatni shakllantirish murakkab va mashaqqatli jarayon. El-yurtga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, kelajakka mas'uliyat bilan yondashmoq esa har qanday ezgu maqsadni amalga oshirish uchun mustahkam tayanch bo'la olishi muqarrar.



SHUKUH

SHUNDAY KUNLAR KELIBDI

Said ANVAR,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi



Qo'ng'iroq bo'ldi.
— Assalomu alaykum, kechirasiz, siz Said Anvar akamisiz?
— Shunday. Eshitaman.
— Men, nashriyotdan Po'latjonman.
Bizga “Osmondan tushgan odamlar” deb nomlangan kitobingizni tayyorlab bersangiz... Uyingizga borib, hisobchimiz shartnoma tuzib keladi... Qalam haqini to'laymiz... Qo'lyozmangizni uch ming nusxada kitob qilib chiqaramiz...

Kimdir hazillashyapti, deyman o'zimcha. Ammo hazilni juda o'rnatyapti: telefonimni to'g'ri topgan, ism-sharifimni ham to'g'ri aytyapti, bu — bir. “Osmondan tushgan odamlar” nomli komediyam bor edi, buniyam aniqlagan, ikki... Lekin menga yoqadigan hazil bo'lyapti, xursandman.

Biroq yuqoridagi gaplarga ishonib bo'ladimi? Ayniqsa, “Uyingizga borib, shartnoma tuzib keladi, qalam haqini 30 foizini oldindan, qolganini bir oy ichida to'laymiz”, degani oshib tushdi.

— Po'latjon, uka, gaplaringiz yolg'on bo'lsa-da, uning mazmunidan quvondim. Juda shirin yolg'on! Shunday gaplar bo'ladi, shunday kunlar keladi, deb o'ylab turaylik hozircha, — dedim.

— Gapimning nimasi yolg'on, aka?

— Bu gapni ellik yil oldin aytganingizda, ishonardim. O'sha 60-70-yillarda bunday gaplar bo'lardi. Dadam Anvar Muqimov ham yozuvchi edi. Kichikkina hajmda kitob chiqarishganda, qalam haqiga “Moskvich” mashinasi sotib olgandik. Undan keyin bo'lgan voqealar sizga ma'lum: mashina sotib, kitob chiqarish rusumga aylanib ketdi. Shunday sharoitlarga tushgan yozuvchilarning yozish haqida emas, asarini qayerda kitob qilib chiqarish, uni

tarqatish, sotish — qarzga botmay pulini o'rniqa qo'yish qayg'usi bilan yashab kelayotgandi... Sizning bu gaplaringizni tushimda eshitayotganday bo'lyapman. Yana kamiga, “Uyingizga borib, shartnoma tuzib kelishadi, pulini oldindan to'laymiz”, deganingiz ortiqcha!

— Aka-yey! — Po'latjon kuldi. — Siz qo'lyozmani tashlab bering, bu yog'ini keyin gaplashamiz.

Ishonib-ishonmay, ammo “Xayrli yolg'on. Hech bo'lmaganda qo'lyozmalarni to'plab, tartibga solib qo'yaman-ku”, degan xayolda ishga kirishib, bir hafta, o'n kunda kitobni tayyor qildim. Aytilgan manzilga yubordim ham.

Bir hafta o'tib-o'tmay, qo'ng'iroq bo'ldi:

— Kitob tayyor. Bosmaxonaga tushirib yuborishdan oldin ko'rasizmi deb sizga jo'natdim. Bir ko'z tashlab berasizmi?

Bunisiga nima deysiz endi! Hayajon bilan kompyuterga yuzlandim: “Said Anvar. “Osmondan tushgan odamlar” — rosmana hajviya, komediyalardan iborat kitob nusxasi ko'z oldimda turibdi-da!

— Zo'rsizlar-ku! — dedim. — Faqat lotin alifbosida ekan, bu harflarga arang

tishim o'tadi. O'zlaring diqqat qilarsizlar. Mundarijasini o'qidim: bo'ladi. Ammo “annotatsiya”da “Said Anvar, Ne'mat Aminov, Said Ahmad, Anvar Muqimov, Anvar Obidjonan keyin...” deb boshlanuvchi jumla bor ekan... Shu o'rinda Said Ahmad aka — katta ustoz nomini oldinga olish kerak. Qolgan yozuvchilarning u kishining shogirdlari bo'ladi.

— Bilamiz, aka, — Po'latjon e'tirozimni javobladi. — Ammo “Said Anvar, Said Ahmad...” desak, Saidlar qatorlashib qolyapti... Shunga atay Ne'mat akani o'talarigizga qo'ygandim... Juda katta xato emas, shekilli, ketaversin, aka?



Aslida, endi buni tuzatib ham bo'lmaydi, qo'lyozma bosmaxonaga tushib ketgan. Qolaversa, uni tayyorlagan “dizayner”imiz uzoq safarda edi...

— Bo'ldi, bo'ldi! — o'zimcha ikki qo'linni tepaga ko'tardim. — Juda noqulay bo'ldi-da.

“

“Nimalar bo'lyapti o'zi? — o'ylayman o'zimcha shubha-gumon bilan. — Ishonmay desam, hajviyaning nomini to'g'ri aytyapti... Ishonay desam... Tomdan tarasha tushganday bir yo'la ikkita kitobga buyurtma! Ha-a-a...”
— Bu kitoblarning Prezidentimizning har yili 100 nomdagi kattalar uchun, 50 nomdagi bolalar uchun kitob nashr qilish borasidagi tashabbusiga ko'ra nashr qilinadi-da! — dedim kallamga kelgan fikrdan jonlanib.

bilan o'qib, kulaverib yotib qoldik! Endi, aka, “Yashasin fonogramma” degan kitob tayyorlab bersangiz.

“Nimalar bo'lyapti o'zi? — o'ylayman o'zimcha shubha-gumon bilan. — Ishonmay desam, hajviyaning nomini to'g'ri aytyapti... Ishonay desam... Tomdan tarasha tushganday bir yo'la ikkita kitobga buyurtma! Ha-a-a...”

— Bu kitoblarning Prezidentimizning har yili 100 nomdagi kattalar uchun, 50 nomdagi bolalar uchun kitob nashr qilish borasidagi tashabbusiga ko'ra nashr qilinadi-da! — dedim kallamga kelgan fikrdan jonlanib.

— Xuddi shunday, aka, — Po'latjonan javob bo'ldi. — Prezidentimizning ana shu tashabbusidan ilhomlanib, biz ham qator kitoblarni homiylarimiz yordamida nashr qilib, kutubxonalarga, maktablarga tekis tarqatishni rejalashtirganimiz. Harakat qilib ko'ring, “100 nomdagi kitob”ga kirib qolsangiz, yanayam zo'r bo'lardi!

— Otangizga rahmat! — dedim quvonib. — Endi shu, ukajon, kitobning nomini o'zgartirsak... “Yashasin fonogramma” nomli kitobim “Sharq” nashriyotida nashr qilingandi...

— Yo'q, aka, o'zgartirib bo'lmaydi. Yuqoridan kelgan ro'yxatda kitobingiz

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1146.
43313 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durdiyeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05